

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА  
МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

АЛИШЕР НАВОЙЙ НОМИДАГИ ТОШКЕНТ ДАВЛАТ  
ЎЗБЕК ТИЛИ ВА АДАБИЁТИ УНИВЕРСИТЕТИ

ЎЗБЕК ТИЛИ ВА АДАБИЁТИНИ ЎҚИТИШ ФАКУЛЬТЕТИ  
ЎЗБЕК ТИЛИНИ ЎҚИТИШ МЕТОДИКАСИ КАФЕДРАСИ



М Е Т О Д И С Т


I

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС  
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ  
АЛИШЕР НАВОЙ НОМИДАГИ ТОШКЕНТ ДАВЛАТ ЎЗБЕК  
ТИЛИ ВА АДАБИЁТИ УНИВЕРСИТЕТИ  
ЎЗБЕК ТИЛИ ВА АДАБИЁТИНИ ЎҚИТИШ ФАКУЛЬТЕТИ  
ЎЗБЕК ТИЛИНИ ЎҚИТИШ МЕТОДИКАСИ КАФЕДРАСИ

# МЕТОДИСТ

I

Тошкент - 2017



Мазкур ишмий мақолалар тұрғыламы Алишер Навоий номидагы үзбек  
ва адабиёти университети иқтисадорлы талабалари,  
стручтари, кафедра қошидаги “Методист”, “Ёш нотық” ишмий  
раги аuezоларининг мақолаларидан ташкыл топған.

*Түплем магистрант ҳамда бакалавриат талабаларига  
салланган*

## *Түплөвчилар ва нашрға тайёрловчилар:*

*Мұхарріп:*  
**З.Холманова**  
ф.ф.д.

*Тақризчилар:*  
**М.Сапарниязова**  
ф.ф.н., доц.

Д.Фаттахова  
п.ф.н., доц.

Бу түйлам Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва  
абиёти университети Кенгаши мажлисисида муҳокама қилинган ва  
нашрга тавсия этилган  
(2017 йил 26 январдаги б-сонли мажлис баённомаси).

## СЎЗ БОШИ

Ўзбек тилшунослиги мустақиллик йилларида ўзига хос тараққиёт йўналишларини белгилаб олди. 2016 йил 13 майда республика биринчи президенти И.А.Каримов томонидан эълон қилинган “Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университетини ташкил этиш тўғрисида”ги ПФ-4797 сонли фармон ўзбек тилини ўқитиш методикасини такомиллаштириш, ўзбек тили мавқеини ривожланган тиллар даражасига олиб чиқиши мақсадига хизмат қилувчи бир қатор вазифаларни белгилаб берди. Фармон матнида таъкидланганидек, “Умумтаълим мактаблари, академик лицей ва касб-хунар коллажлари, олий таълим муассасаларида ўзбек тили ва адабиёти фанини ўқитишнинг янги ва самарали методлари бўйича илмий изланишлар олиб бориш, илгор педагогик технологияларни кенг жорий этиш” муҳим вазифалардан биридир.

Ижтимоий-гуманитар фанлар, хусусан, тилшуносликнинг назарий ва амалий масалалари, ўзбек тилини ўқитиш тизими бўйича ўз ечимини кутаётган долзарб масалаларга бағишлиланган фундаментал тадқиқотлар олиб боришга кенг имкониятлар яратилди.

Миллий тилни ривожлантириш масаласининг Республика сиёсати даражасига кўтарилиши тилшунос олим, методистларни, айниқса, ёшларни тил муаммоларини ҳал этишга қаратилган тадқиқотларга жалб қилди. Олий таълим вазирлигининг “Ёшлар ўртасида илм-фан ютуқларини тарғиб этиш ва уларнинг илмий тадқиқот ишларига қизиқишини янада кучайтириш бўйича Кенгаш” ташкил этиш тўғрисидаги 68-сонли буйруғи бевосита ёшларни илмий тадқиқотларга жалб қилиш мақсадига қаратилган бўлиб, ушбу буйруқ ижроси таникли олимлар, академиклар, фан заҳматкашлари фаолиятининг ибрат намунаси сифатида хизмат қилиши, мавжуд илмий база негизида ёш иқтидорли олимлар, тадқиқотчи-изланувчилар мактабини шакллантиришни назарда тутади.

Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети Ўзбек тили ва адабиётини ўқитиш факультети Ўзбек тилини ўқитиш методикаси кафедраси қошида

“Методист”, “Ёш нотик” тұғараклари фаолият юритмоқда. Тұғарак аъзолари истеъдодли талабалар, магистрантлар, катта илмий ходим-изланувчилар ва мустакил тадқиқотчилардан иборат. Тұғарак аъзолари турли маңнавий-маърифий тадбирлар үшіншириш билан бир қаторда тил үқитиши методикаси ва нутқ мәданияти масалаларига доир илмий тадқиқотлар олиб боришга ҳам йўналтирилган.

Тұғарак аъзолари томонидан тұпламларда мақолалар чоп этилмоқда, кичик ҳажмдаги рисолалар нашр қилинмоқда, илмий анжуманларда маъruzалар үқилмоқда.

“Методист” тұплами кафедра қошида ташкил қилинган илмий тұғаракнинг доимий нашри сифатида шакллантирилмоқда. Кафедра иқтидорли талабалари сафини кенгайтириш, ёш изланувчилар фаолияти натижаларини республика миқёсига олиб чиқиш, ёш тадқиқотчилар ҳамкорлигини таъминлаш мақсадида мазкур тұпламда республика олий таълим муассасалари иқтидорли ўшларининг илмий мақолаларини ҳам нашр этиш режалаштирилган.

## **РЕКЛАМА МАТНИНИНГ ПСИХОЛИНГВИСТИК ХУСУСИЯТЛАРИ**

Бугунги кунда ҳар томонлама юксалиш сари интилиб бораётган жамиятимиз фуқароларининг онги, янгича фикрлаш тарзи, хулқ-автори ва истеъмолчилик дидининг шаклланишида рекламанинг ўрни бекиёс. Маълумотларга кўра ҳозирда мамлакатимизда 200 дан ортиқ реклама агентликлари фаолият юритиб келмоқда. 1998 йил 28 декабрда қабул қилинган Ўзбекистон Республикасининг “Реклама тўғрисида”ги Қонунида ҳам истеъмолчиларда тадбиркорлик ва истеъмол маданиятини такомиллаштириш асосий мақсад ва вазифалардан бири эканлиги кўрсатиб ўтилган[1]. Ушбу мақсадни амалга ошириш ўз навбатида фуқароларимизда реклама ва у орқали тарғиб этиладиган маҳсулотлар турларини идрок қилиш ҳамда уларга тўғри муносабатда бўлиш маданиятининг шаклланишини тақозо этади. Мамлакатимизда реклама психологияси бўйича бир катор тадқиқотлар амалга оширилган, бироқ рекламанинг психолингвистик жиҳатлари деярли ўрганилмаган. Биз рекламанинг айнан мана шу – психолингвистик жиҳатига эътиборни қаратамиз. Шу ўринда реклама жараёнидаги психологик ва психолингвистик жиҳатлар нималардан иборат, деган савол туғилади.

Бу жараённинг моҳияти шундаки, реклама адресатининг психикасига муайян таъсир орқали унинг мақсад, мотив, умуман, унинг шахси, онги, онгости, ахлоқи, ҳаракат ва қилиқларини ўзгартиришга ҳаракат қилинади.

Рекламага психолингвистик нұқтаи назардан қараганда, дастлабки асосий вазифа – бу инсонга реклама матни орқали таъсир қилиш ҳисобланади. Матн фақат сўзни эмас, балки у кўриш образларини ҳам ўз ичига олиши лозим. Бунда матн ўқиб бўлиниши, қабул қилинишига эришиш лозим. Бунинг учун, аввало, реклама адресатининг матнни ўқиши учун мотив ва сабаблари ҳисобга олинниши керак. Агар реклама адресатига бирон нарса керак бўлмаса, шак-шубҳасиз, у бу реклама матнини ўқимайди, чунки унга бу нарса керак эмас. Иккинчидан, ҳатто реклама

адресатида мотив бўлган тақдирда ҳам бу реклама матни уни қизиқтириб ушлаб турла олиши лозим. Учинчидан, матн тушунарли бўлиши лозим, ана шундагина у таъсир ўтказа олади. Масалан, реклама адресатида реклама ўқиш учун мотив бор, чунки унда ўша фирма билан боғлик бўлган тасаввур мавжуд. Лекин газетада босиб чиқарилган реклама матнининг биринчи абзаци охирига бориб қизиқиш умуман йўқолади, чунки у жуда зерикарли, қизарли эмас, шу сабабли уни ўқимасликка қарор қиласи. Бу ҳолат психолингвистик нуқтаи назардан матнни тушуниш масаласига бориб тақалади.

Матннинг психолингвистик тушунилиши деганда, аввало, матннинг психолингвистик ташкиллаштирилиши, яъни унинг боғланганлиги назарда тутилади. Матннинг бир қисмидан иккинчи қисмига силлиқ ўтиб кетилиши ва бу боғлиқликни ўқувчи ҳис қилиши лозим. Матннинг иккинчи жиҳати эса унинг мақсадга йўналтирилганлигидир. Ана шунда матн англашган, ўзининг боши ва охирига, ички тузилишига эга бўлган ягона бирлик сифатида қабул қилинади. Бироқ реклама матнининг хусусиятлари оддий матн талабларидан бироз фарқ қиласи. Бу борада психология фанлари доктори Т.М.Дридзе тадқиқот олиб борган [3]. Ушбу тадқиқот натижаларига кўра, матннинг предикативлик (кесимлик) тузилиши бўйича матнда битта асосий фикр мавжуд бўлади ва у дараҳт танаси каби тармоқларга бўлинниб кетади, яъни фикрнинг иккинчи, ундан кейин учинчи даражали предикациялари ҳосил бўлади. Бундан келиб чиқадики, матнда муайян ва ягона тузилма мавжуд. Афсуски, реклама матнларида бундай аниқ ички тузилмани ҳар доим ҳам кўра олмаймиз. Шундай реклама матнлари борки, бир қараганда ёмон эмас, лекин уни бирон марта ҳам охиригача ўқиб улгурмайсиз, чунки матн жуда ҳам муваффакиятсиз чиқсан. Яна шуни ҳам айтиб ўтиш лозимки, аксарият кишилар рекламани умуман ўқишмайди, шунчаки назар солишади. Шу сабабли матнни шундай қисқартириш керакки, ундан ўқувчи ҳеч бир қийинчиликсиз калит сўзларни топа олиши ва уларни бирлаштириб, мазмун чиқара олиши лозим. Матннинг бутунлиги деганда айнан мана шу: бутун матнни ўқимасдан туриб ҳам алоҳида калит сўзлар орқали мазмунни ҳосил қилиш тушунилади.

Иккинчи масала – бу матннинг вариантилиги, яъни реклама матнини турли мақсад ва вазифаларга, шунингдек, турли адресатлар, турли семиотик гурухларга йўналтиришдир. Мақсадлар

ҳар доим ҳам ёш, касб, ижтимоий ва бошқа гурухларга мос келавермайди. Бунда қандай мақсадлар назарда тутилади? Айтайлик, фирма имиджини яратиш – реклама муайян товарни сотишига эмас, балки адресатда фирмага нисбатан муайян муносабатни шакллантиришига йўналтирилган. Иккинчи мақсад – қандайдир маълумотни етказиш, масалан, бирон-бир фирманинг кўчиши бўлиши мумкин. Бунда реклама фирманинг нимани сотишига эмас, балки уни энди қаердан топиш мумкинлигини етказишга йўналтирилган бўлади. Ёки бозорда замонавий компьютер моделининг пайдо бўлганлиги муносабати билан адресатни айнан ана шу товарни сотиб олишга истакни ҳосил қилишга йўналтирилган бўлиши мумкин. Мана шу ерда адресатда эътиroz пайдо бўлади – нима учун мен айнан шу товарни сотиб олишим керак? Бу саволга жавоб тариқасида унга бир қанча мотивлар қарама-қарши чиқиши лозим: чунки у менга керак – бу биринчи мотив, чунки у арzon – иккинчи мотив, чунки уни сотиб олиш учун узоққа бормайман – бу учинчи мотив ва шу тариқа давом этиши лозим. Адресатда шундай мотивларни ҳосил қилиш учун реклама яратувчи ҳар бир кичик элементни кўздан қочирмаслиги талаб этилади. Албатта, бу кичик элементлардан ҳар доим бири устунлик қиласи. Газеталарда берилаётган қатор рекламаларни биз реклама деб эмас, шунчаки маълумот сифатида қабул қиласиз, чунки улар психологик жиҳатдан нейтрал, унда адресатнинг ҳеч қандай мотивлари хисобга олинмайди. Улар кўпроқ маълумот етказишга хизмат қиласи.

Реклама матнининг З асосий функцияси мавжуд: соф реклама, информацион ва тарғиботга оид. Соф реклама матни информацион ва тарғиботга оид матн оралиғида туради. Реклама адресатдан мақсадини ўзгартириш ёки янги мақсадни яратиш ё бевосита ҳаракатни амалга оширишига ундейди. Натижада рекламани кўрган киши шу ондаёқ ўша магазинга боради ёки бу маълумот унинг онгига жойлашади ва у шу магазин ёнидан ўтаётганда, албатта, кириб ўтади, лекин бу ҳозир муҳим эмас. Матн билан боғлиқ бўлган учта тушунча мавжуд. Биринчиси – бу матнинг тузилиши, яъни ташқи томонидир. Иккинчиси – унинг архитектоникаси, яъни китобнинг мантикий скелети, қисмлар, бўлим, параграфларга бўлинишидир. Бу кўпинча композиция, мазмуний композиция, мазмуннинг ички тузилиши деб ҳам аталади. Учинчи томони матнинг тузилишидир. Бунда матнинг тил тузилиши –

шрифтларнинг кўлланиши, мазмун билан ташки ифода воситаларининг мувофиқлиги назарда тутилади. Ҳар қандай матнга икки томонлама ёндашиш мумкин: 1) матнни қабул қилиш қонуниятлари; 2) матнни қабул қилиш жараёни. Бунда бир неча позицияни кўрсатиб ўтиш лозим бўлади. Биринчи позиция – матнни қабул қилишнинг осон ва мураккаблиги, яъни бошқа адабиётларда матннинг ўқишилиги деб ҳам юритилади. Уқишилиникнинг маҳсус формулалари мавжуд. Улардан зинг машҳури – Флеш формуласидир.

Семиотик Ч.Морриснинг тил белгилари таснифи асосида юзага келган реклама матнининг таъсир қилиш моделига доир бир қанча қизиқарли ишлар мавжуд [4]. Олим белгиларнинг 4 турини фарқлаган: десигнаторлар – ахборот берувчи белгилар, аппрайзерлар – баҳоловчи белгилар, прескрипторлар – реакция ҳосил қилишга йўналган ва форматорлар – ёрдамчи ва тузувчи белги-богламалар. Реклама матнининг мақбул тузилиши – бу десигнатор – аппрайзер – прескриптор. Масалан: “Бутун дунё аёллари кир ювиш машинасидан фойдаланишади, сиз-чи?”, бунда “бутун дунё аёллари кир ювиш машинасидан фойдаланишади” жумласи – бу десигнатор-аппрайзер, “сиз-чи” – прескриптор ҳисобланади. Шунинг учун, бундай нуқтаи назардан “Артел кир ювиш машиналари ёрдамида кир ювиш сизга ором бағишлайди” – яхши матн, “Артел кир ювиш машиналари – энг яхшиси” – ёмон, чунки унда прескриптор йўқ, бу эса “шунга нима бўлибди? Менга нима қизиги бор?” деган реакцияни келтириб чиқаради. “Зелёный чай” кукунидан фойдаланинг” – бунда факат десигнатор ва прескриптор иштирок этган. Самарали бўлиши учун матнни “Зелёный чай” кукунидан” фойдаланинг ва вақтингизни тежанг” тарзида ўзгартириш, яъни аппрайзерни киритиш лозим. Аппрайзер қисми мотив ва қарор қабул қилиш механизми учун, десигнатор қисми диққатни жалб қилиш учун қўлланади ва прескриптор қисми суггестия (ўз-ўзини ишонтириш)ни таъминлайди.

Матн тузилиши самарадорлигига таъсир қилувчи баъзи хориж маълумотларини келтириб ўтамиз. Биринчи – агар матн бошида истеъмолчининг қизиқишлари таъкидланса, самарадорлиги ошади. Иккинчи – матнга транзицияни киритиш (транзиция – матннинг ҳар бир қисмининг қисқача мазмуни) матнни яхши тушунишга ёрдам беради. Бошқача айтганда, ягона боғланган матн ўрнига матннинг қисмларини ажратиш ва кичик сарлавҳалар қўйиш лозим бўлади.

Учинчи – матн тузилиши қанча содда бўлса, у шунча яхши англанади. Эргашган кўшма гаплардан кўра содда гапларни кўллаш яхши самара беради. Тўртинчи – шубҳали тавсияларни киритмаслик лозим, “ташқари”, “...дан бошқа” каби сўзлар матнда ишлатилмаслиги лозим. Бешинчи – сўзлари муайян истеъмолчига қаратилган бўлиши лозим. Олтинчи – матннинг ўрта қисмига қараганда боши ва охири яхши эсда қолади, шу сабабли бош ва охирги қисмларига урғу бериш лозим бўлади [5].

Бундан ташқари реклама матнидаги имловий хатолар ҳам адресатнинг ижобий фикридан қайтишига сабаб бўлади.

Хулоса ўрнида айтиш мумкинки, рекламанинг қай даражада професионал чиқиши унинг психолингвистик жиҳатларини эътиборга олганлигига боғлиқ бўлади.

### Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикасининг “Реклама тўғрисида”ги Конуни// Халқ сўзи. 1998 йил 28 декабрь.
2. R.J.Harris. Language in Advertising a Psycholinguistic Approach, 2014.
3. Osgood Ch.E., Suci G., Tannenbaum P. The Measurement of Meaning. Urbana, 1957.
4. Леонтьев А.А. Понятие текста в современной лингвистике и психологии // Психолингвистическая и лингвистическая природа текста и особенности его восприятия. Киев, 1979.
5. Дридзе Т.М. Язык информации и язык реципиента как факторы информированности // Речевое воздействие. Проблемы прикладной психолингвистики. М., 1972.

*O.Saidaxmedova*

*Master student of Tashkent state university of  
Uzbek language and literature after named Alisher Navoi'*

## **THE EXPRESSING OF NATIONAL-CULTURAL LACUNAS IN ALISHER NAVOI'S WORKS**

Language takes part in two processes: first of all, outlook takes shape about language, second, a representative of the culture holds special lexics which are expressed with its own culture lexicons. National-cultural peculiarities fasten with certain territory, climate, flora and fauna, social conditions, rites. It reflects peoples' mother tongue. Every language has its national-cultural lexicons and these lexicons can't be understood in another language. Languages differ from each other, this situation is explained with national-cultural peculiarities. These situations are elucidated in with linguistics the term of "lacuna"[1]. In research works on linguistics, linguoculturology, sociolinguistics, translation linguistics and intercultural communication theory the term of "lacuna" which means the gaps (in the latin language *lacuna* – gap, depth; in the French language *lacune* – empty, hollow, vacant) [2] is widely used.

The term of "lacuna" was first time used in scientific manuals by Canadian linguistics J.P. Vine and J. Darbelnet, they described it: " When one word can't find a equivalent in another language, there is usually a gap which means lacuna"[3]. Because of recipients' acceptance of foreign cultural texts as his own cultural outlook. May because of intercultural collide. Differences of cultures may prevent to communication among the cultures. As the result of comparison of many languages' lexics, there can be seen gaps, virtual words or in semantics of a certain languages which should be in the sentence. These gaps are called "lacunas" and they may appear because of one word in language hasn't having their equivalents in another language.

"Lacuna" began to be used in the scientific literature, particularly, in the dictionaries in the 70-80 years of the XX century. Especially, lacunas were explained as "space, empty place

in the text” in “Советский энциклопедический словарь” (Dictionary encyclopedia of Soviet union) (Moscow, 1981). This explanation was also given in “Словарь иностранных слов”(Dictionary of foreign words) (Moscow,1984). But there is no explanation in the following dictionaries: “Русский язык: Энциклопедия”(Russian language: Encyclopedia) (Moscow,1979), “Лингвистический энциклопедический словарь”(Dictionary encyclopedia of linguistics) (1990), “Справочник лингвистических терминов”(A guide of linguistics terms) (1972), “Словарь лингвистических терминов”(Dictionary of linguistic terms) (1969), “Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati” (Dictionary of definitions of linguistic terms) (editor A.Hojiyev. Tashkent, 2003). It can be seen from the given examples that lacunas were taken into consideration by foreign scientists in the 30-40 years of the last century.

In our opinion, the first notion about lacuna was told by East scientists. Especially, Alisher Navoi, who lived in the XV century, wrote his scientific work which was named “Muhokamat ul-lug‘atayn” (Discussion of dictionary). He compared two languages: Turkic and Persian, analyzed and proved the richness of the Turkic language with examples: “Hunar va peshada andoqli, qushchi va borschi va qo‘riqchi va tamg‘achi va jibachi va yo‘rg‘achi va halvochi va kemachi va qo‘ychi. Andoqli, qush hunarida dag‘i bu istiloh bordur, andoqli, qozchi va quvchi va turnachi va kiyikchi va tovushqonchiki, sort lafzida yo‘qtur. Va alar mazkur bo‘lg‘onlarning ko‘pin turkcha ayturlar”[4]. There are such notions in both of cultures, but in the Persian language that notions weren’t named. The scientist proved his opinions with examples, such as the names of the jobs: *qushchi*, *borschi*, *qo‘riqchi*, *tamg‘achi*, *jibachi*, *halvochi*, but these notions aren’t reflected in the Persian language. As well as, Alisher Navoi told that the verb *giryakardan* (to cry) in Persian language, but in the Turkic language that word was expressed with one hundred verb forms. If the verb of *giryakardan* is equivalent with the verb of *yig‘lamoq* in Turkic language, other ninety nine verbs are lacuna-singular for the Persian language. Because in the Persian language there are no words to express, so it’s lacuna for the Turkish language. Navoi also emphasized the tools of war, clothes’ names weren’t used in the Persian language, so Persian people used Turkish words. We can see that, although lacunas weren’t used as scientific terms in the XV

century, first scientific researches were done by East scientists, shortcomings of contrastive languages weren't removed by their outlooks.

Lacuna encompasses wide linguistic singulars: verbal and non-verbal singulars, symbols. Uzbek researcher Sh.Usmanova analyzed it: "Gestures are also lacunas' component, they are different from each other. Such as, Uzbek people may use to pass indicative finger calling for another people, this gesture means "to come here". Korean and Japan people cannot use this gesture for person, because this gesture is for calling dogs"[5].

To sum up, things and their names exist in one culture, but the same things can be found in another culture, but they aren't named. These shortcomings can cause to analyze lacunas. When lacunas are researched in all sides, linguoculturology will develope and its sphere spreads widely.

### Literatures

1. Сорокин. Ю.А. Лакуны как сигналы специфики лингвокультурной общности // Аспекты изучения текста. М.: 1981. С.38.
2. Стернин И.А., Быкова Г. В. Концепты и лакуны // Языковое сознание: формирование и функционирование. М.: 1998. С.155.
3. Vinay J.P., Darbelnet J. Stylistique comparee du fraicais et de l'anglais. Paris: 1958. P. 10.
4. Navoiy A. Muhokamat ul-lug'atayn. Toshkent: G'afur G'ulom, 2011. B.37.
5. Usanova Sh. O'zbekcha va koreyscha so'zsiz muloqotning milliy-madaniy xususiyatlari // International Journal of Central Asian Studies. Vol. 9. Seoul: 2004.

## “DUNYONING ISHLARI” QISSASIDAGI LEKSIK SINONIMLARNING SEMANTIK-USLUBIY XUSUSIYATLARI

So‘z insonga berilgan buyuk ne’matdir. U – tushuncha anglatuvchi til birligi. Til esa so‘zlar asosida ifodalangan yaxlit voqelikdir.

Tilning uch asosiy vazifasi mavjud:

- 1.Aloqa-munosabat vositasi sifatidagi vazifasi.
- 2.Hissiy-ta’siriy vazifasi.
- 3.To‘plash vazifasi.

Tilning hissiy-ta’siriy imkoniyatlari bevosita badiiy asar tilida namoyon bo‘ladi. San’atkor adib badiiy til vositasida qahramon xattiharakatlarini yoki kechinmalarini shunchaki tasvirlash yo‘lidan bormaydi, balki insoniy tuyg‘ular taftini kitobxonga to‘la va mukammal yetkazishga erishadi. Bunda sinonimiya hodisasi va sinonimlarning o‘rni beqiyosdir.

Sinonimlar tushunchaning mohiyatini yoritishda, voqeа-hodisani aniq ifodalashda o‘ta ahamiyatlidir. Badiiy asar tilidagi ta’sirchanlikni oshiruvchi vositalardan biri sinonimlardan o‘rinli va maqsadga muvofiq foydalanish hisoblanadi. Shu bilan birgalikda, sinonimlar yozuvchi mahoratini ko‘rsatuvchi omil hamdir.

O’tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasining e’tiborga tushishida asarning til xususiyatlari, undagi badiiy tasvir vositalari, ifoda uslubi ma’lum ahamiyat kasb etadi.

“Dunyoning ishlari” – ona haqida, ona mehrining poyonsizligi, ona bardoshining tiganmasligi haqidagi asar. Ona timsolini yaratishda, ta’sirchan ifodalarda, uslubiy-semantik tasvirlarda sinonimlarning alohida o‘rni bor.

Qissada *qaramoq-termilmoq-mo’ralamoq-mo’ltiramoq-javdiramoq* so‘zлari sinoniik qatorni tashkil qilgan. Bu sinonimik qatordagi bosh so‘z *qaramoq* bo‘lib, qolgan so‘zлar shu so‘zning bosh ma’nosи asosida bir sinonimik qatorga birlashgan.

*Qaramoq* fe’li shaxsning ko‘z harakati orqali reallashadigan ma’noni ifodalagan: *Menga qarab-qarab qo’ydilar.*(140-b). (Hoshimov O. “Dunyoning ishlari”. T.: G”.G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1982.) Bu misolda *qaramoqfe’li* ko‘makchi fe’lli so‘z

qo'shilmasi tarkibida kelib, harakatning takroriyligini ifodalagan. *Qaramoq fe'li* orqali ifodalangan ma'no uslubiy bo'yoqlarga ega emas.

*Qaramoq* ma'nosi *termilmoq* fe'lida ham ifodalangan: *Oyim qog'ozga emas, Dalavoyning ko'ziga qarab termildi: – Qo'tir echki qanaqa qilib yuz litr sut bersin, opovsi, -dedi sekin.* (131-b.). Mazkur jumlada *termilmoq* onaning Zakunchiga iltijoli qarashini ifodalagan. Unda so'zlovchining ruhiy holati ham aks etgan.

*Mo'ralamoq* biror to'siq yoki vosita osha qarashni bildiradi: *Hozir ham eshikdan sekin mo'raladim, deraza yorug'ida tugma qadab o'tirgancha o'ziga gapiryapt.* (152-b.). *Mo'ralamoq* fe'lida ehtiyyotkorlik bilan amalga oshirilgan qarash harakatini ham tushunish mumkin.

*Mo'ltiramoq* nochor holda qolgan shaxsning iltijo bilan qarashini ifodalaydi:

–*Davlat, birovning oxirigi molini shilib kelasan, deganmas. Bu gap o'sha piyonistaning o'zidan chiqqan, - dedilar dadam.*

–*Qo'lida qog'ozি bor-ku, - dedi oyim yoshli ko'zlarini mo'ltiratib.* (134-b.).

*Mo'ltiramoq* fe'li qarashning o'zini ifodalamasa ham, unda qarashning qay tarzda amalga oshirilishi uslubiy bo'yoqlarda aks etadi.

*Jovdiramoq* fe'li ham bevosita qarash ma'nosini ifodalamaydi. Lekin so'zda qarash tushunchasini beruvchi uslubiy ma'no mavjud: *Oyimning ko'zlarini tashvish bilar jovdirardi: – Nima qilaylik, opovsi, o'tgan safar barkashni olib ketdingiz...* (130-b.).

*Jovdiramoq* fe'lida iltijo bilan qarash ma'nosi yanada kuchli ifodalanadi :–*Yo'lda ehtiyor bo'linglar: -Mehri xola xira ko'zlarini jovdiratib iltimos qildi.* (143b.).

*Qaramoq* fe'li *ko'rmoq* ma'nosini ham ifodalab kelgan :

*Qarasam, odam tirband.*

(112-b.).

Yuqorida izohlangan va boshqa sinonimik qatorlar asar tilining uslubiy ravonligi, jozibadorligini ta'minlagan. Asar tilida yuzga yaqin sinonimik qator kuzatildi. Bular orasida *qabriston-go'riston; sukunat-jimjilik; kun-quyosh-ofstob; tengri-xudo; do'st-o'rtoq, go'dak-norasida-chaqaloq; farzand-bola; xomush-ma'yus; quvonmoq-xursand bo'lmoq; tiqilinch-tirband; nola-nido; yomg'ir-jala; bechora-boyaqish; yorug'-yorqin-nurli; tabassum-qahqaha; ko'klam-bahor; gunoh/ayb; badjahl-jahldor; ovutmoq-yupatmoq* kabi o'zaro ma'nodosh so'zlar mavjud. Bu sinonimik qatorlar voqeа-hodisani ta'sirchan ifodalishga, qahramon ruhiyatini yaqqol aks ettirishga, badiiylikni ta'minlashga xizmat qilgan.

Leksik sinonimlar orasida yordamchi so‘zlar sinonimligini ham kuzatish mumkin. Masalan, *goh-ba’zan, ehtimol-balki* kabi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, “Dunyoning ishlari” qissasi leksik sinonimlarga boy. Leksik sinonimlar tilning lug‘aviy imkoniyatlrini aks ettirishga xizmat qiladigan birliklardir.

*M.Abdumannanova,  
ToshDO ‘TAU magistranti*

## O‘QITUVCHI VA O‘QUVCHI FAOLIYATI

Bugungi kunda shiddat bilan jadallab borayotgan zamonaviy fan-texnikaning kashfiyotchisi bo‘lgan inson tafakkuri har bir sohada o‘ziga xos bo‘lgan va bir-birini takrorlamaydigan yangiliklar sari qadam tashlamoqda. Yosh avlodga zamon talablariga mos tarzda ta’lim-tarbiya berishning maqsadi, vazifalari, mazmuni, uslubiy talablariga ko‘ra fan, texnika va ilg‘or texnologiya yutuqlaridan unumli foydalanish bugungi ta’lim tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Ta’limning samaradorligini oshirish, ta’lim muassasalarida bilim olayotgan shaxsni har tomonlama yetuk jamiyat a’zosi qilib voyaga yetkazish uchun u doimo ta’lim jarayoni markazida bo‘lishi lozim. Bunday natijalarga erishish va yoshlarning mustaqil bilim olishlarini ta’minlashda ta’lim muassasalariga yaxshi tayyorgarlik ko‘rgan va o‘z sohasidagi bilimlarni mustahkam egallashdan tashqari zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol usullarni biladigan, ulardan o‘quv va tarbiyaviy mashg‘ulotlarni tashkil etishda foydalana oladigan, zamon talablariga mos o‘qituvchilar kerak. Buning uchun barcha fan o‘qituvchilari yangi pedagogik texnologiyalar va interfaol usullar bilan qurollanishi va egallagan bilimlarini o‘z kasbiy faoliyatlari davomida barcha mashg‘ulotlarda qo‘llash malakalarini uzlusiz oshirib borishlari lozim.

Bu esa dars jarayonida bir xillik, umumiyl yondashuv, doimo bitta qolipda olib boriladigan ta’limiy faoliyatdan butunlay voz kechishni taqozo etadi. Yosh avlodni har tomonlama yetuk inson qilib tarbiyalashimiz uchun ham bir xillik andozasi asosidagi zerikarli darslar o‘rniga darslarni tashkil etishga mas’uliyat bilan yondashadigan, o‘z kasbining mohir bilimdoni, metodik mahoratga ega, mas’uliyatli, zamonaviy interfaol pedagogik texnologiyalarni mukammal o‘zlashtirib olgan, innovatsiyalar asosida ta’limni tashkil eta oladigan kun

o'qituvchilariga talab oshib bormoqda. Ta'lism sohasida kutilgan asosiy natijaga erishish, chuqur va puxta bilim berish, yuqori sifatdagi o'zlashtirishga erishish bevosita nazariy va amaliy mashg'ulotlarni olib boruvchi o'qituvchining ijodkorligi, izlanuvchanligi, malakasiga, pedagogik mahoratiga bog'liqidir. Bu esa, albatta, ta'lism jarayoni markazida o'qituvchi ta'lism beradigan o'quvchi shaxsi turishi kerakligini taqozo etadi.

Pedagoglar tomonidan har qanday ta'lism jarayonini tashkil etishda o'qituvchining mavzuni yoritib berishdagi ijodiy uslubiy yondashuvi, tezkorligi va o'zi ta'lism berayotgan har bir o'quvchining shaxsiy xususiyatlari hisobga olinadi.

Dars jarayonini joriy etish va uning strukturasidan unumli foydalanimishda o'quvchilar faoliyatini tashkil etish muhim rol o'yndaydi.O'qituvchilar bilim saviyasi va malakasidan kelib chiqib, har bir darsda qo'llaydigan interfaol usullar o'quvchilarning kommunikativ bilimi, tushunchasini, ko'nikma va malakalarini oshiradi.

Zamonaviy ta'limga tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt ichida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarini hosil qilishdan iborat. O'quvchilar tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat talab etadi.

Interfaol usullar dars uchun o'qituvchi tomonidan qo'yilgan ta'limiylari, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsad bo'yicha ta'sir o'tkazish faoliyatidan iborat. Bu esa barcha ta'limga-tarbiya jarayonida komil insonni shakllantirish uchun asosini mezondir.

O'quv jarayonida o'quvchilar faolligini oshiruvchi o'qitish usullaridan biri "Kichik guruhlarda ishlash" usulidir. Bunda o'qituvchi tomonidan o'quvchilar kichik guruhlarga bo'linib ishlaydilar. Guruhlarning ishlashda har bir guruh mavzuni to'liq va mukammal o'zlashtirish jarayonida bir-biridan o'rghanishga, o'rganganlarini esa o'z salohiyatlari doirasida baholashga, turli vaziyatlarda bilimlarni qadrlab, xulosa chiqarishga imkon yaratiladi. Ta'lism olayotgan shaxsning hamkorlik, hamjihatlik, do'stona munosabatlarda ishlashini ta'minlaydi. Ayniqsa, bir-birlarini eshitish, fikrini bayon etish, o'zaro hurmatga undaydi. Ushbu usulda o'rghanilayotgan mavzuning muammoli tomonlari asos qilib olinadi va guruhlarga murojaat qilinadi. Muammodan bir-biriga bog'liq bo'lgan masalalar belgilanishi orqali kerakli asos yaratiladi. O'z

nomiga ega bo'lgan har bir guruhga induktiv-ongli yondashuv asosida, ya'ni misollardan qoidalarni anglab borishga tomon yo'naltirilgan topshiriqlar ham beriladi. Guruhlar aniq ko'rsatma va topshiriqlar bilan ishlaydilar. O'qituvchi har bir guruh faoliyatini qo'llab-quvvatlab, yo'naltirib turadi. Dars yakuni muhokama qilinadi, o'quvchilar baholanadi, rag'batlantiriladi.

"Munozara" metodida esa har bir o'quvchi muammoli masala ustida ishlaydi. Guruh qatnashchilarining har bir a'zosiga mavzu yuzasidan o'z fikrini erkin bayon etish imkoniyati yaratib berilishi kerak. Munozara orqali o'quvchilarda mavzuga oid axborot berish, olish orqali o'quv materiali yaxshi esda qoladi, o'zaro muloqotga kirishish, fikr bildirish, fikr almashinish ko'nikmalari shakllanadi. O'quv jarayonida o'quvchining o'z-o'ziga baho berishi, tanqidiy qarashi rivojlanishi barobarida ijodiy yondashuv, ijodiy fikrlash namoyon bo'ladi. O'qituvchi bu jarayonlarning boshqaruvchisi sifatida ularni tahlil qilib, qo'shimchalar kiritib, har bir munozarali vaziyatni to'g'ri baholay olishi kerak.

Yuqorida misol sifatida keltirilgan ta'lim usullarini qo'llash jarayonida darsda ishtirok etayotgan o'quvchilarning bilim saviyasi bir xil bo'lmaydi. Dars jarayonida faol ishtiroki bilan o'qituvchidan rag'bat olayotgan tengdoshini ko'rgan har qanday past o'zlashtiruvchi o'quvchi ham mavzuni tushunishga, savol-javoblarda ishtirok etishga, muammoli vaziyatlarni tahlil qilishga harakat qiladi. Zamon talabiga mos darslarning asosiy maqsadi ham barcha o'quvchilarni faollikka undash, har bir mashg'ulotning ular xotirasidan o'chmay muhrlanib qoladigan bilimlar bilan boyitilishi keraklidir. Qiziqarli va mazmunli darslar muxlisiga aylangan o'quvchi keyingi yangi mavzu uchun darslikdan tashqari ham qo'shimcha adabiyot va internet materiallaridan ma'lumotlar olib, har bir darsda o'z faolligi bilan ishtirok etishga harakat qiladi. Bunday natijalarga erishish uchun o'qituvchi yuksak rivojlangan fikrlash qobiliyatiga, muammolar bo'yicha mushohada yuritishga, muammoli vaziyatlarga o'z vaqtida to'g'ri yechim topa oladigan qobiliyatga ega bo'lishi kerak.

10903

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI

ToshDO'TAU

AXBOROT-RESURS MARKAZI

## TIL O'QITISH DASTURLARINING AMALIY AHAMIYATI

Til – millatning mavjudlik shartidir. Tili taraqqiy etmagan ulusning ruhiyatida yuksalish bo'lmaydi, o'zligidan yiroqlashadi. Til inson qalbiga beshikdayoq ona allasi bilan singadi, go'dakligidayoq yuragida millat ruhi shakllanadi.

Zamon talablari asosida o'z ona tilimizni o'rganish bilan bir qatorda, dunyo tillarini ham o'zlashtirib bormoqdamiz. Boshqa chet tillarini o'rganish barobarida shu xalqlarning tarixi, madaniyati, taraqqiyoti haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lyapmiz. Xorijiy tillarni o'rganishda turli usullardan foydalanilmoqda.

Bugungi kunda til o'rgatish uchun mo'ljallangan o'quv markazlari tashkil etilgan bo'lib, ingliz, rus, fransuz, koreys, xitoy va yana ko'plab tillarni o'rganish, shu tillarda bemalol muloqot qila olish imkoniyatlari mavjud. O'qitish bilan bir qatorda, iqtidorli o'quvchilarni rag'batlantirib, jahonga yuz tutgan mashhur universitetlar talabasi ho'lish baxtini taqdim etayotgan IELTS va TOEFL o'quv dasturlari ingliz tilini o'rganishda muhim dasturlardan biridir.

**IELTS** – International English Language Testing System, ya'ni Xalqaro ingliz tili sinovi tizimi. Imtihonning maqsadi ingliz tilida o'qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish ko'nikmalarining qay darajada shakllanganligini baholash hisoblanadi.

**TOEFL** – Testing of English as a Foreign Language so'zlarining bosh harflaridan yasalgan qisqartma so'z bo'lib, Amerika universitetlari yoki kollejlariга kiruvchilar uchun sinov vazifasini o'taydi.

Mazkur dasturlarning bosh maqsadi ingliz tilini mukammal o'rganishni ta'minlashdan iboratdir. IELTS tizimi Buyuk Britaniya ingliz tiliga asoslangan bo'lib, aynan ingliz tili grammatikasiga tayangan holda o'qitishni nazarda tutadi. TOEFL dasturi Amerikada foydalaniladigan ingliz tili qonun-qoidalariga asoslanadi. Ushbu ikki dastur test olinish usuli, vazifalari, turlari, baholash, test o'tkazilish jarayoni bilan bir-biridan farqlanadi.

IELTS test dasturining 2 turi mavjud bo'lib, Umumiy(IELTS General Training Module) va Akademik(IELTS Academic Module) test sinovi qismlaridan iborat. Umumiy yo'nalishda test topshirganlar o'rta yoki o'rta maxsus ta'lim asosida o'quv faoliyatlarini davom ettirishi

mumkin. Oliy ma'lumotga ega bo'lish uchun esa Akademik test sinovini topshirish talab etiladi.

TOEFL o'qishga kirish uchun yagona sinov-test tizimi emas. Amerika o'quv yurtlarida TOEFLga qo'shimcha ravishda o'quvchining avval o'qigan ta'lim muassasidan olgan baholari va ingliz tiliga bog'liq biror dastur bo'yicha qo'lga kiritgan yutuqlari ham hisobga olinadi. Ingliz tilida amalga oshirilgan jamoaviy tadbirlardagi faoliyat ham inobatga olinadi.

Har ikkala dasturda ham sinov tizimi to'rt xil shaklda bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Mazkur dasturlarning farqi bosqichlarning amalga oshirish usullari hamda baholash tizimida namoyon bo'ladi.

#### **IELTS(2 soat 45 min):**

➤ **LISTENING (TINGLASH)** - 30-40 daqiqa davomida, ma'lum axborotni tinglab, unga tegishli bo'lgan 40ta savolga javob berish

➤ **READING (O'QISH)** - 60 daqiqa davomida muayyan sohaga oid bo'lgan matnni o'qish hamda shunga oid 40ta savolga javob berish

➤ **WRITING (YOZISH)** - 60 daqidada umumiy mavzuda esse yoki insho yozish

➤ **SPEAKING (SUHBAT)** - 10-15 daqiqa ichida shaxsiy hayoti, faoliyati, kelajakdagi rejalar haqida so'zlab berish.

#### **TOEFL(4 soat 30 min):**

➤ **READING (O'QISH)** - 60-80 daqiqada 700 so'zdan iborat, 3-4 fragmentli matnni o'qib tahlil qilish

➤ **LISTENING (TINGLASH)** - ikki xil ko'rinishda: 60-90 daqiqa davomida biror dialogdagi suhbat yoki axborotni tinglab tushunish

➤ **SPEAKING (SUHBAT)** - 6 xil vazifadan iborat: 20 daqiqa ichida 2ta o'zi istagan tanish mavzu, 4ta eshitgan yoki o'qigan mavzularidan biri haqida so'zlab berish

➤ **WRITING (YOZISH)** - 50 daqiqa mobaynida o'qiganlari hamda eshitganlari bo'yicha savollarga javob tarzida yoki o'zi bilgan mavzuni dalillar, ma'lumotlarga tayangan holda yozma tarzda asoslab berish.

#### **Baholash tizimi:**

IELTS → 9ball, TOEFL → 450 (ba'zan 500-550) ball.

Ballar orasidagi tafovut katta. Buyuk Britaniyaning iqtisodiyot yo'nalishidagi universitetlariga topshirish uchun kamida 6 ball, yuridik yoki gumanitar sohaga yo'naltirilgan o'quv yurtlariga

topshirish uchun kamida 7.5ball to‘plash kerak. IELTS dasturida tanlangan institut yoki yo‘nalishdan qat’i nazar, hamma bir xil tartib va talab asosidagi sinovlardan o‘tadi. Farq faqat to‘plangan ballar va ularning qayerda, qanday tartibda qabul qilinishi bilan izohlanadi. Amerika magistratura mutaxassisligida o‘qish uchun TOEFL tizimidan to‘plangan ball 61-109 oralig‘ida bo‘lishi kerak. Masalan, Harvard hamda Kolumbiya universitetlariga shu talab asosida talabalar qabul qilinadi.

Bulardan tashqari, **FCE** (First Certificate in English), **CAE**(Certificate in Advanced English), **GRE** (Graudate Record Examinations), **GMAT** (Graduate Management Admissin Test) kabi til o‘rgatuvchi va sinov asosida chet elda o‘qishni ta’minlovchi maxsus dasturlar ham mavjud.

O‘zbekistonda o‘rta, o‘rta maxsus va oliv o‘quv yurtlarida o‘qitilayotgan ingliz tili ta’limi Buyuk Britaniya ingliz tili grammatikasiga asoslangan. Shuning uchun IELTS dasturi mavqeyi va bu tizimda sinov topshiruvchilar soni TOEFLga nisbatan ko‘pchilikni tashkil etadi.Bu dastur talablari asosida tayyorlanayotganlar soni tobora ko‘paymoqda. IELTS test tuzuvchilarining ta’kidlashicha, ushbu testlar sinovdan o‘tuvchining umumiy bilimini ham, uning maxsus tayyorgarligini ham tekshirmaydi. Test dasturining asosiy maqsadi test topshiruvchining ingliz tilini kelajakda yetarli darajada o‘zlashtirishini ta’minalashdir. Lekin, jarayon shuni ko‘rsatmoqdaki, sinov davomida talabgor savollarga to‘gri javob topish uchun mantiqiy fikrlashi, ma’lumotlarni analiz, sintez qilishi, o‘z ona tili ko‘nikmalari asosida anglab, qayta ishlashi va ularni xorijiy tilga o‘girib, to‘gr‘i ifodalay olishi kerak. Bu jarayon talabgordan muayyan bilimga ega bo‘lishni, maxsus tayyorgarlik ko‘rishni talab etadi. Demak, IELTS ingliz tilini mukammal egallash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qilibgina qolmasdan, talabgorlarning ingliz tili bo‘yicha bilim darajalarini aniqlashga ham xizmat qiladi.

IELTS dasturi o‘qish, yozish, eshitish va gapirish ko‘nikmalarining qay darajada shakllanganligini aniqlashda ingliz tilida so‘zlovchi davlatlarda ta’lim olish jarayonining zarur qismi hisoblanadi. Shu bois IELTS sinovlariga tayyorgarlik ko‘rishning eng asosiy yo‘nalishlari ingliz tilini kundalik turmushda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan bo‘ladi. Ingliz tili muloqot tili bo‘lgan davlatlarda ta’lim olishni maqsad qilgan talabalar bilan ishslash maqsadida borayotgan fuqarolarning tilni

bilish ko'nikmalari farq qilishi mumkin, ammo IELTS sinovlaridagi topshiriqlarda bu farq belgilovchi rol o'ynamaydi.

Ingliz tilida gaplashadigan davlatlarda ta'lim olish jarayonida quyidagi vaziyatlarga duch kelish mumkin:

- ✓ Kitob va jurnallar o'qish;
- ✓ Yozma topshiriqlarni bajarish;
- ✓ Ma'ruzalar tinglash;
- ✓ Seminarlarda qatnashish.

Ta'lim olish jarayonida sohaga oid turli adabiyotlarni o'qish, aniq bir mavzuga doir ma'lumotlar berilgan gazeta va jurnallarni mutolaa qilish; matnlar, jadvallar va chizmalardan kerakli ma'lumotlarni olish; olingan ma'lumotlarni tahlil qilish talab etiladi.

Yozma topshiriqlarni bajarish o'rtaqa tashlangan muammoli masalani analiz qilish; yozma ishning rejasini tuzish; o'z so'zlari bilan yozish orqali mavzuni tushunarli tarzda ifodalash, o'z fikrini yozma ravishda tahlil qila olish uchun kerak.

Ma'ruzalarni tinglash davomida nutqni tinglab tushuna olish; turli sheva elementlari aralashgan nutqni tushuna olish; ma'ruzaning asosiy qismlarini, urg'u berilayotgan ma'nolarini anglash; zarur ma'lumotlarni yozib olish kerak. Bularidan tashqari radio va video xabarlaridagi turli darajadagi tezlik va shevada gapirilgan nutqni tinglab tushuna olish, nutqning asosiy mazmunini anglay olish hamda zaruriy holatlarda ular orqali yetkazib berilayotgan ma'lumotlarni yozib olish ko'nikmalarini shakllantirish kerak.

Seminarlarda qatnashish tinglovchilardan matnlar muhokamasida ishtirok etishga tayyor bo'lishni, ma'ruzachi va talabalarning berayotgan savollarini tushuna olishni, savollarni ingliz tilida tushunarli tazrda bera olishni talab etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, IELTS dasturi asosida ta'lim olishni ikki bosqichga bo'lib amalga oshirish kerak:

1. Nutq, yozish, o'qish va tinglab tushunishni uzviy o'rgatish. Talabgorning so'z boyligini imkon qadar oshirgan holda ingliz tili grammatikasining eng zaruriy va murakkab jihatlarini o'rgatish. IELTS sinovini topshirishga oid yo'l-yo'riqlar ko'rsatish.

2. Nutq, yozish, o'qish va tinglab tushunish ko'nikmalarini keng miqyosda rivojlantirish; gazeta va jurnallar o'qish ko'nikmasini shakllantirish, radio va audioeshittirishlar asosida tisnglab tushunish ko'nikmasini mustahkamlash, imkon qadar jonli muloqotlarni amalga oshirish asosida og'zaki nutq ko'nikmasini rivojlantirish.

IELTSni o'rgatish kursi oxirida ta'lim oluvchilar quyidagi ko'nikmalarini to'liq egallagan bo'lishlari zarur:

- 1) ingliz tilidan ona tili sifatida foydalanuvchilarning o'rtacha tezlikdag'i nutqida anglatilayotgan ma'lumotni tinglab tushuna olish va qabul qilingan ma'lumotni yuqori darajadagi aniqlik bilan (diktant ko'rinishida) eshitilganlarni aynan takrorlamasdan, gap mazmunini gapirib bera olish;
- 2) hujjatlarni tashkil etish (masalan, hisobotlar, rasmiy va norasmiy xatlar, chizma va diagrammalardagi ma'lumotlarni matn ko'rinishida ifodalash, referatlar yozish), so'rovnoma ko'rinishidagi hujjatlarni to'g'ri to'ldira olish. Hujjatlarni ma'lum cheklangan vaqt ichida aniq to'ldirish hamda ma'lumotlarni yozish jarayonida kerakli bo'lgan uslubdagi (rasmiy yoki norasmiy) ingliz tilidan foydalana olish;
- 3) ma'lum cheklangan vaqt ichida ijtimoiy muhimlikka ega bo'lgan turli mavzularga asoslangan insholarni yoza olish;
- 4) ko'rib chiqish, ma'lumot qidirish va o'rganish usullaridagi anglash talab darajasida o'zlashtirish.Cheklangan vaqt ichida aytilayotgan (og'zaki nutq) yoki yozilgan (matn) axborot ichidan kerakli bo'lgan ma'lumotlarni topa olish;
- 5) ma'lum bir mavzuning asosiy mazmunini og'zaki tarzda bayon qila olish; mavzu asosida berilishi mumkin bo'lgan savollarga javob berish va buni mos uslubdagi ingliz tili asosida amalga oshira olish;
- 6) ingliz tilida asosiy bilimlarning puxta o'zlashtirilganligini namoyon eta olish (masalan, til grammatikasi, leksikasi, orfografiyasi va boshqalar).

IELTS test sinovi barcha ingliz tilini o'rganuvchilar uchun butun bir imkoniyatlar majmuyidir. Bu sinov tizimi ingliz tilining mavqeyini yanada oshiradi. IELTS va shu tipdag'i test sinovlarini kuzatib, xulosa chiqarish mumkin-ki, o'zbek tilini o'rganishni xohlagan, shu tilda o'qishni davom ettirmoqch bo'lgan chet ellik talabalar uchun sinov turlari ishlab chiqilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Faxr bilan shuni aytish lozimki, bugun ona tilimizni o'rganishga bo'lgan talab yuqori darajada.Hozirda O'zbekiston oliy o'quv yurtlari bakalavr yo'nalishi hamda magistratura mutaxassisligida o'zbek tili imkoniyatlaridan unumli foydalanib, shu tilda tahsil olayotgan xorijlik do'stlarimiz anchagini.

O'zbek tilini o'rgatuvchi zamonaviy dasturlar yaratishga kirishilmoqda. Ammo endilikda mukammal til o'rgatish dasturlarini yaratish, takomillashtirish fursati yetdi. Amerikaning ba'zi universitetlarida aynan ona tilimizni o'rganuvchi va o'rgatuvchi fakultetlar tashkil topgani yutug'imiz bo'lsa, shu yutuqlardan foydalangan "**Gigant test sinovi**" tizimini joriy etish lozim. *Gigant* atamasi "katta", "kuchli" ma'nolarini anglatadi. U chet tillarini o'qitish dasturlaridan butunlay farq qilgan holda, quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: 1.O'qish. 2.Yozish. 3.Tinglab tushunish va so'zlab berish. 4.Muloqot.

O'zbek tili tarixiga ahamiyat berilishiga sabab shuki, eng go'zal, eng salmoqli, uzoq asrlarni o'z ichiga qamrab olgan ona tilimiz tarixini nazardan chetda qoldirib bo'lmaydi. Til o'qitish bilan o'quv dasturlarini til tarixiga oid ma'lumotlar bilan boyitish lozim. O'zbek tili tarixini bilmagan o'quvchi uning tarkibidagi o'zlashma so'zlar, asrlar davomida ma'noviy o'zgarishlarga uchrab, asl ma'nosidan uzoqlashgan so'zlarni ajrata olmaydilar. Har bir so'zning semalari ijodkorlar asarlarida qay tarzda qo'llanganini bilmay, anglamay turib har bir so'zni shunchaki qo'llay olmaydilar. Ana shunday imkoniyatlarni o'zida mujassam etgan o'quv dasturi har bir xorijlik talabga qulaylik yaratadi.

Xorijiy tillarni o'rganish kun tartibidagi dolzarb masalalardan biridir. Yoshlar shuni anglashlari lozimki, xorijiy tilni o'rganish milliy til imkoniyatlarini to'liq o'zlashtirish negizida amalga oshirish lozim.

### Foydalanaligan adabiyotlar:

1. Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari. - T., 2011
2. Po'latov A. Kompyuter lingvistikasi. - T., 2011
3. Po'latov A., Muhamedova S. Kompyuter lingvistikasi. - T., 2007
4. <http://m.ielts-test.ru/ielts-ili-toefl.html>
5. <http://uz.m.wikipedia.org/wiki/IELTS>
6. <http://forum.ziyouz.com/index.php?topic=3899.0>

## **TA'LIMGA KREATIV YONDASHISHNING AHAMIYATI**

Bugungi kunda O'zbekistonda ta'lif sohasida olib borilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi yurtimizda sog'lom, barkamol, bilimli va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan yosh avlodni shakllantirishdan iborat.

Ta'lifning sifat va samaradorligini oshirish, o'quvchining mustaqil va mukammal bilim olishi uchun imkoniyat yaratish, uning dunyoqarash va tasavvurini kengaytirish, fikrlash qobiliyatini o'stirish o'qituvchining intellektual salohiyatiga, dars jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalardan o'rinni va unumli foydalanishiga bog'liq. Bugungi kunda ta'lifda bu vazifalarni bajarishda kreativlik nihoyatda katta o'rin tutadi. Xo'sh, kreativlik nima, uning ta'lif jarayonining ilgarilashidagi o'rni qanday?

Kreativlik – individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyat ma'nosini ifodalaydi. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida namoyon bo'ladi. Amerikalik psixolog P.Torrens fikricha, kreativlik muammo yoki ilmiy farazlarni ilgari surish; farazni tekshirish va o'zgartirish; qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash; muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o'zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta'sirchanlikni ifodalaydi.<sup>1</sup>

Pedagogda kreativlik fazilatining bo'lishi uning o'z mutaxassislik sohasini yaxshi bilishidek muhim sanaladi. Uning bu sifatlarga ega bo'lishi shaxsiy qobiliyatları, tabiiy va ijtimoiy quvvatini kasbiy faoliyatni sifatli, samarali tashkil etishga yo'naltiradi. Pedagog kreativlikni ikki yo'nalishda olib boradi:


1.O'zida yuksak yaratuvchilik qobiliyatini namoyon qilib, darsga o'quvchilarni qiziqtirish.

2.O'quvchilarda ham bilim berish, ham zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali kreativlik xususiyatini shakllantirish.

Pedagog dars qanday shaklda bo'lishidan qat'i nazar (ma'ruza, amaliy yoki seminar mashg'uloti), unga ijodiy yondashishi kerak. Bunda

<sup>1</sup> "Kreativ pedagogika asoslari" moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua.–Toshkent,2016.

u turli ta’lim metodlari, usul va vositalaridan foydalanishi mumkin. Darsda o‘qituvchining passiv metod bo‘lgan an’anaviy bayon usulidan foydalanishi o‘quvchilarning zerikishiga, ularning mazkur fan haqida noto‘g‘ri xulosa chiqarishiga olib kelishi mumkin. Pedagog ma’ruza davomida, iloji boricha, o‘quvchini mavzuga jalb qiladigan interfaol metod va grafik organayzerlardan foydalanishi kerak. Masalan, o‘qituvchining “Venn diagrammasi”, “Konseptual jadval”, ‘Baliq skeleti”, “Insert”, “Klaster”, “Nilufar gul”, “T-jadval” singari grafik organayzerlardan ma’ruzada foydalanishi pedagogning darsga nisbatan kreativ yondashganligini bildiradi. “Venn diagrammasi” GO ta’lim oluvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan o‘zaro yaqin nazariy bilim, ma’lumot yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Unda muayyan bo‘lim va yoki boblarni taqqoslash samaralidir:



Kreativ pedagogik texnologiyalar, shuningdek, ta’lim jarayonida qo‘yiladigan vazifalar va o‘quv topshiriqlari yechimini o‘quvchilar tomonidan ijodiy yondashuv va mustaqil izlanish asosida ishlab chiqishga qaratilgan pedagogik faoliyatni aks ettiradi.<sup>2</sup>

Ko‘z oldingizga ta’lim jarayonini yuksak mahorat bilan boshqarayotgan, uni o‘ziga xos va qiziqarli tarzda jo‘sinqinlik, zavq-u shavq bilan tashkil etayotgan o‘qituvchini keltiring. U, garchi, o‘zini kreativ shaxs yoki ijodkor deb bilmasa-da, biroq kreativlikni namoyon etuvchi ta’lim jarayonini tashkil etayotganidan, unga imkon beradigan metod, usullarni qo’llayotganidan ham mammun, qolaversa, talabalarning minnatdor bo‘lishlariga erishmoqda. O‘qituvchi ta’lim jarayonida kreativ metod, usullardan qancha ko‘p

<sup>2</sup> Sharipov Sh. O‘quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta’minlashning nazariyasi va amaliyoti.—T., 2012.

foydalansa, o‘ziga va o‘zining ijodiy, kreativ imkoniyatlariga nisbatan ishonchi shuncha oshadi. Buning natijasida o‘quvchilarda mavzu yuzasidan atroflicha bilim va ,o‘zлari bilmagan holda, kreativ ko‘nikma paydo bo‘ladi.

O‘qituvchi dars o‘tish jarayonida bolalarni nisbatan erkin qo‘yishi kerak, chunki biz intilayotgan ta’lim yoshlarning ijodiy erkinligi va mustaqil fikrlashiga tayanadi. O‘quvchilar biror fikr bildirganda pedagog hech qachon fikrining noto‘g‘riligini aytmasligi kerak, keyinchalik ular o‘z fikrini aytishga jur’at qila olmaydi, shu bilan ularda mazkur fan yuzasidan ijodkorlik to‘xtab qoladi.

Shuni unutmaslik kerakki, yurtimizda olib borilayotgan ta’lim-tarbiyaga oid islohotlar, yuqorida ta’kidlaganimizdek, ularda kreativlikni shakllantirish masalasi bir maqsadga qaratilgan. Ya’ni barchamiz chuqur anglab oldik-ki, “...faqatgina zamonaviy asosda ta’lim-tarbiya olgan, jahonning mana-man degan mamlakatlaridagi tengdoshlari bilan bellasha oladigan, jismoniy va ma’naviy jihatdan barkamol yoshlar biz boshlagan ishlarni munosib davom ettirish va yangi bosqichga ko‘tarishga qodir bo‘ladi”.<sup>3</sup>

### Foydalanaligan adabiyotlar:

1. Karimov I. Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – Toshkent: O‘zbekiston, 2015
2. Sharipov Sh.O‘quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta’minlashning nazariyasi va amaliyoti. –Toshkent , 2012.
3. “Kreativ pedagogika asoslari” moduli bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua. – Toshkent, 2016.

<sup>3</sup> Karimov I. Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. –T.: O‘zbekiston, 2015 – B. 255.

## "HAYRAT UL-ABROR" ASARI TILINI O'RGANISHDA FSMU METODIDAN FOYDALANISH

Alisher Navoiy "Hayrat ul-abror" dostonining so'nggi maqolotini tugatayotib: "...daftarim o'zining oxirgi varaqlarini ham topdi. Aslida, yaxshilarning hayratlanganini ko'rib, nomini "**Hayrat ul-abror**" deb qo'ydim. Yozilish tarixining ma'nosi chiroyli bo'lib, u sakkiz yuz sakson sakkizinchchi yil edi (Milodiy 1483-yilga to'g'ri keladi – Q.N.). Kim o'qisa yoki ko'chirib yozsa, duo bilan ruhimni shod qilsa, Tangri ishini murod-maqsadiga olib borib, ruhini jannatda shod etsin!"<sup>4</sup> – deydi.

Jahon tan olgan yozuvchilarning o'z asarlarida qo'llagan so'zlari miqdori dunyo olimlari tomonidan hisoblab chiqilganda A.Navoiy 26.035 so'z qo'llaganligi bilan barchasidan yuqori o'rinni egallagan.

Navoiyning nega buncha ko'p so'zdan foydalangani borasida turli qarashlar mavjud. Ulardan biri Navoiy turkiy tilning lug'at boyligi qanchalik keng ekanligini ko'rsatish maqsadida ko'p so'z ishlatgan, degan ta'lqindir. Uning asarlari tili bilan tanishish davomida har bir o'quvchi bunga ishonch hosil qiladi.

Bugungi davr talabidan kelib chiqadigan bo'lsak, ta'lim va tarbiya texnologiyasi zamonaviylashib borayotgan bir sharoitda mustaqil fikrlashni shakllantirish uchun nafaqat an'anaviy, balki noan'anaviy, ya'ni interfaol uslublardan foydalanish ham kun sayin dolzarblashib bormoqda.

Shunday uslublardan biri FSMU metodi sanaladi. Bizga ma'lumki, FSMU metodi quyidagi shartlarni o'z ichiga oladi:

F – fikr bildiring,

S – bildirilgan fikrga sabab ko'rsating,

M – sababni misollar bilan izohlang,

U – fikringizni umumlashtiring.

"Hayrat ul-abror" dostonining II bobida "tuzmak" fe'li uchraydi. Ushbu so'zni yuqoridagi metod bo'yicha tahlil qilamiz.

F: *Tuzmak* – fe'lning harakat nomi shakli bugungi kunda ham ma'lum ma'noga ega (*bitim tuzmoq, reja tuzmoq* kabi). Biz fikr yuritayotgan doston tarkibida esa "*chizmoq*" ma'nosida keladi:

*Doirani juz bu sifat tuzmayin.*

*Silsilani bir-biridin uzmayin.* ("Hayrat ul-abror", II bob)

<sup>4</sup>Alisher Navoiy. Hayratul-abror.Nasriy bayon qiluvchi: A. Hayitmetov.–Toshkent: G'afur G'ulom, 1974.

Asos morfemaning o'zi qo'llangan o'rirlarda "tekislik", "to'grilik" ma'nolarini bildirgan:

*Der edi yolgon demakim shum erur,*

*Kizb tuz el ollida mazmum erur.* ("Hayrat ul-abror" 10-maqolot)

*Tuzmak* – A.Navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida alohida ta'kidlagan yuzta fe'lning to'qsoninchisidir. "Chidamoq", "sabr qilmoq" ma'nosini ifodalovchi mazkur fe'l shakldosh fe'l hisoblanadi.

S: Navoiy asarlarida ushbu fe'l turli ma'no nozikliklarini ifodalashga xizmat qilgan. Ushbu so'zning 5 xil qo'llanish o'rni mavjud:

1) tuzatmoq, to'grilamoq;

2) bino qilmoq, yaratmoq;

3) idora qilmoq, boshqarmoq, tartibga solmoq;

4) chizmoq;

5) yordamchi fe'l vazifasida:

*Bazm tuz* – majlis, bazm qurmoq;

**Navo tuz** – kuy chalmoq ma'nosida qo'llangan.

M: *Tuzatmoq, to 'grilamoq* ma'nosida qo'llangan o'rniغا misol:

*Sen o'z xulqungni tuzgil, bo 'lma el axloqidin xursand,*

*Kishiga chun kishi farzandi hargiz bo 'lmadi farzand.*

(“G'aroyib us-sig'ar”, 115-g'azal)

Bino qilmoq, yaratmoq ma'nosiga misol:

*Tuzmagay erdi bu qazo bu jismi vayronimni qosh,*

*Chunki tuzdi solmagay erdi anga jonimni qosh.*

(“G'aroyib us-sig'ar”, 268-g'azal)

*Idora qilmoq, boshqarmoq, tartibga solmoq* ma'nosiga misol:

*Chun saltanatqa o'lturdi, jahon mulkin adl va bob ila tuzdi...*

(“Tarixi muluki Ajam”)

Yordamchi fe'l vazifasida kelgan o'rirlari:

*Bazm tuz* – majlis, bazm qurmoq ma'nosida ham qo'llangan.

*Har qachon ul qilib nishotqa azm,*

*Tuzsa gulfom qasri sahnida bazm*

(“Sab'ai sayyor”, 23-bob)

**Navo tuz** – kuy chalmoq ma'nosida qo'llangan o'rniغا misol:

*Ey mug'anniy, bir navoki dilkusho tuzgilki, chang*

*Rishtai nag'mangga bog'labtur sarosar ko 'nglini.*

(“Favoyid ul-kibar”, 610-g'azal)

U: “Hayrat ul-abror” dostonida qo'llanilgan fe'l so'z turkumiga mansub “*tuzmak*” omonim leksema hisoblangan. Doston tarkibida qaysi

shakldosh variant qo'llanganini faqatgina matn tarkibida aniqlash mumkin.

Navoiy asarlaridagi ko'pchilik so'zlar bugungi kunda arxaizmlarga aylangan. Bunga sabab til leksikasi to'xtovsiz ravishda o'zgarib turishidir. Jamiyat taraqqiyoti va ijtimoiy tuzumning o'zgarishi bilan uzviy bog'langan holda leksika ham o'zgarishlarga uchraydi.

Arxaizmlar – o'zi iste'moldan chiqqan, ammo ma'nosi saqlanib qolib, boshqa atama bilan izohlanuvchi so'zlar. Boshqacha aytganda arxaizmlar o'z o'rnini boshqa yangi terminga bo'shatib bergen so'zlardir.

A.Navoiy asarlari tarkibida, shu jumladan "Hayrat ul-abror" da *aduv, amin, andesha, aysh-u tarab, besha, daler, dom, gazand, hamdast, ilhon, kizb, lahn, maxlas, mazmum, savt, sharza, sidq, sipehr, tund, xasm* kabi bugungi kunda arxaizmga aylangan so'zlarni uchratamiz.

"Sipehr" so'zi *osmon, falak* ma'nolarini bergen. Aslida, *ko'k* so'zi sof turkiycha so'z bo'lib, bu so'zning tilimizda tez-tez uchraydigan arabchadan o'zlashgan *samo, fazo, fors-tojikchadan* o'zlashgan *osmon, charx, gardun* kabi bir qancha sinonimlari mavjud. So'zlashuv tilida, asosan, *osmon* so'zi qo'llanadi. Badiiy uslubda esa ushbu sinonimik qatordagi barcha so'zlardan foydalaniлади. Hatto, *ko'k* so'zidan ham bugungi kun she'riyatida foydalaniлади. Masalan, shoira Zulfiya "O'ylar" she'rida, *ko'k* so'zini qo'llaydi. Shoiraning sinonimik qatordagi so'zlardan aynan "*ko'k*" so'zini keltirishini, avvalo, bu so'zning sof turkiycha so'zligi bilan izohlashadi. Navoiy ham o'z davrida asarlarida yuqoridagi sinonimik qatordagi barcha so'zlardan foydalangan. Faqat *osmon* leksemasini uchratmasligimiz mumkin, uning o'rnida *sipehrni* uchratamiz. *Ko'k* so'zidan foydalaniлган o'rinalar bir qancha. Masalan, professor Fozila Sulaymonova "Ayyomi visol o'ldi yana" kitobida Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy" devoni tarkibiga kirmay qolgan "Kimnikim yor aylading bo'lidi giriftoring sening" matla'li g'azalini e'lon qiladi. Mazkur gazalda "Tutashti *ko'k* mir'otiga go'yo namudoring sening" misralari mavjud. "Hayrat ul-abror" dostonining o'ninchı maqolotida quyoshni *osmon sheri* deya ta'riflash uchun "*ko'k asadi*" deb tashbeh qo'llaydi. *Ko'k* so'zi bugungi kunda arxaizmga aylanib bormoqda. Undan faqat badiiy uslubda, she'riyatdagina ayrim o'rinalarda foydalaniлayotganining guvohi bo'lamiz, adabiy tilda, ilmiy uslubda bu so'z iste'moldan chiqqan. *Sipehrni* esa to'liq arxaizmga aylangan deyish mumkin.

**F:** A.Navoiy “Hayrat ul-abror” dostonida *ko’k so’zini qo’llash* bilan birga, yana *ko’p o’rinlarda uning ma’nodosh varianti – sipehrni ham qo’llagan*. “Nega barcha o’rinlarda sof turkiycha *ko’k so’zidan foydalanib qo’ya qolmagan?*” degan savol tug‘ilishi mumkin.

**S:** Doston sariyi musaddasi matviyi makshuf (mavquf) vaznida bitilgan bo‘lib, *sipehr so’zi qo’llangan o’rinlarni uning sinonim varianti bilan almashtirib ko’rsak vazn taqtiyi buziladi*. Shuningdek, yana boshqa o’rinlarda *sipehr o’ziga qofiyadosh so’zlarga moslab keltirilgan*. Demak, bayt tarkibidagi hamohanglikni saqlash maqsadida *ko’k so’zining sinonimlari qo’llangan*.

**M:** *Gunbandi mino bila toqi sipehr.*

*Kim anga sham’ anjum erur, shamsa – mehr*

(“Hayrat ul-abror”, IV bob)

*Andoq aro yerda ayon bo ‘ldimehr.*

*Kim hasad eltur edi andin sipehr.*

(“Hayratul-abror”, 10-maqolot)

**U:** Doston leksikasini o‘rganayotganda, vaznni, qofiyani, radifni hisobga olish zarur.

Xulosa qilib aytganda, Navoiy asarlarini, xususan “Hayrat ul-abror” dostoni tilini o‘rganishda interfaol metodlar (masalan: FSMU metodi) dan foydalanish masalaga bir necha tarafdan yondashishni talab etadi, bu esa o‘quvchilarda keng qamrovli bilimni shakllantiradi. O‘zbek tili boy til degan fikrni (Navoiy o‘zbek tilining asoschisi hisoblanadi) ilmiy asosda isbotlaydi. Shu bilan birga, Navoiyning badiiy mahorati, so‘z qo’llashdagi san’atini tushunib yetishda turtki beradi.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Navoiy, Alisher. To‘la asarlar to‘plami. Oltinchi jild. Xamsa. Farhod va Shirin.– Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyotmatbaa ijodiy uyi. Toshkent, 2013.

2. Navoiy, Alisher. Hayrat ul-abror. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1974.

3. Navoiy, Alisher. Qomusiy lug‘at, I-II tomlar.– Toshkent: Sharq, 2016.

## **SAVODXONLIK – INSON ZIYNATI**

Bugungi kunda yurtimiz taraqqiy etib, barcha sohalarda ulkan yutuqlarni qo'lga kiritmoqda. Keng ko'chalar, osmono'par binolar, ko'rkam bog'-rog'lar, betakror favvoralar yurtimiz ko'rkiga ko'rк qо'shmoqda. Lekin gulning ham tikoni bo'lgani kabi, ona tilimizdan foydalanishda qo'pol xatoliklarga yo'l qo'yilayotganligi bu go'zalliklarga soya soladigan achinarli holatlardandir. E'tibor beradigan bo'lsak, joylarda chiqarilayotgan ko'pgina e'lonlar va reklama matnlarida, oziq-ovqat mahsulotlariga, madaniy -maishiy va savdo korxonalariga, ovqatlanish shoxobchalariga atab qo'yilgan nomlarda, peshlavha va yo'l ko'rsatkichlaridagi, transport vositalaridagi yozuvlarda turli orfografik va punktuatsion xatoliklarning borligiga guvoh bo'lamiz. Masalan, "Poyabzal ta'mirlash ustaxonasi" jumlesi aks etgan ayrim o'rinnlarda *poyabzal* so'zi *poyafzal* shaklida noto'g'ri yozilgan. Bunday holatning yuzaga kelishiga asosiy sabab *abzal* va *afzal* paronim so'zlarining mavjudligidir. Biroq *poyabzal* so'zining kelib chiqish tarixi *abzal* "egar-jabduq" hamda *afzal* "a'lo, yaxshi" paronimlari bilan, umuman, bog'lanmaydi. "O'zbek tilining etimologik lug'ati" 3-tomida qayd etilishicha, *poyabzal* so'zi tojikcha *poy* – "oyoq" oti bilan "*mansub narsa*" ma'nosini anglatuvchi tojikcha *afzal* otidan tuzilgan. "*Ustunlikka ega*" ma'nosini anglatuvchi arabcha *afzal* sifati ta'sirida tojikcha *afzol* oti tarkibidagi o tovushi atovushiga, bundan tashqari, ftovushi b tovushiga almashtirilgan. *Poyabzal* va *poyafzal* variantdosh so'zlar ham emas. Tilshunos olim Sh.Rahmatullayev "O'zbek tilining izohli lug'ati"da *abzal* oti bilan *poyabzal* so'zi tarkibidagi shunday qism arabcha *afzal* sifati deb xato belgilanganligini ta'kidlagan." O'zbek tilining imlo lug'ati"da ham bu so'z *poyabzal* shaklida aks ettirilgan.

Kundalik hayotimizda *esdalik* so'zini *estalik* shaklida yozish ham keng tarqalgan. *Esdalik* so'zi og'zaki nutqda *estalik* tarzida talaffuz qilinadi. Lekin bu holatni yozma nutqda ifoda etsak, orfografik jihatdan xatolikka yo'l qo'ygan bo'lamiz. *Esdalik* so'zini talaffuz qilish jarayonida nutq a'zolarining jarangsiz s tovushidan keyin birdaniga jarangli d tovushiga o'tishi paytida noqulaylik yuzaga keladi. Talaffuz qulayligiga erishish uchun d tovushi o'zining jarangsiz jufti – t ga almashadi. Shuning uchun ko'pchilik *esdalik* va *estalik* variantdosh

so'zlar, ularning biri o'rnilida ikkinchisini bermalol qo'llash mumkin, deb hisoblaydi. Bu noto'g'ri qarashdir. Imlo qoidalari ko'ra, ushbu so'z fonetik tamoyil asosida emas, balki morfologik tamoyil bo'yicha yozilishi kerak. Morfologik tamoyil so'zlar qanday talaffuz qilinishidan qat'i nazar, asos va qo'shimchalarni asliga muvofiq yozishni talab etadi. *Esdalik* so'zi es - "xotira" so'ziga **-da** o'rinn-payt kelishigi qo'shimchasi va **-lik** so'z yasovchi qo'shimchasini qo'shish orqali hosil qilingan bo'lib, "xotirada qolgan taassurot" degan ma'noni anglatadi. Ma'lumki, o'rinn-payt kelishigida **-ta** qo'shimchasi yo'q. Shuningdek, "*O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari*"ning 36-bandida ham "o'rinn-payt va chiqish kelishigi qo'shimchasing, o'tgan zamon yasovchisi va III shaxs ko'rsatkichi **-digo** 'shimchasing boshidagi undosh ba'zan **t** aytilda ham, hamma vaqt **d** yoziladi" deb qayd etilgan. Shunday ekan, bu so'zni *estalik* shaklida emas, *esdalik* ko'rinishida yozish maqsadga muvofiqdir. Ba'zida ayrim so'zlar imlosi insonni ikkilantirib qo'yadi. Joylardagi binolar ko'rinishi aks etgan reklama matnlarida "Dastlabki holati", "Hozirgi holati", ovqatlanish shoxobchalaridagi taomnomalarda "Ertalabki nonushta", "Tushlik" kabi yozuvlarni ko'rganda hech kim ajablanmaydi. Chunki ko'pchilik hali-hanuz *dastlabki*, *ertalabki* so'zlarining *dastlabgi*, *ertalabgi* tarzida yozilishidan xabardor emas yoki ular buni xatolikka yo'ymaydi. Bilamizki, bu so'zlar sifat so'z turkumiga oid bo'lib, *dastlab*, *ertalab* ravishlariga sifat yasovchi **-gi** qo'shimchasing qo'shilishidan hosil bo'lган. *Dastlab*, *ertalab* so'zlarining *dastlap*, *ertalap* tarzida talaffuz qilinishi orfoepik me'yor sanaladi. **B** tovushi imlosiga nazar tashlaydigan bo'lsak, unda **b**tovushining so'z oxirida jarangsizlanib **p** shaklida aytilda ham, doimo **b** yozilishi qoida etib belgilangan. Bu esa ushbu so'zlarni *dastlab*, *ertalab* deb yozishni taqozo qiladi. Ularga **-gi** qo'shimchasi qo'shilganda jarangsiz **p** ta'sirida **g** tovushi unga moslashadi va assimilatsiya hodisasi sodir bo'ladi. Natijada **-gi** qo'shimchasi **-ki** tarzida talaffuz etiladi. Yaqin kunlargacha **-gi** qo'shimchasi *dastlabgi*, *ertalabgi* so'zları tarkibida yozma nutqda ham **-ki** variantida ifoda etib kelindi. Lekin bu 1995-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi "Imlo qoidalari"ga mos kelmaydi. Imlo qoidalari **-gi** qo'shimchasinı jarangsiz tovush bilan tugagan *qishki*, *kechki*, *turtki* kabi so'zlarda **-ki** tarzida qo'llashni inkor etmeydi. Ammo jarangli tovush bilan tugagan so'zlarda, albattra, bu qo'shimcha **-gi** shaklida ifodalanishi, shunga ko'ra, *dastlabki*, *ertalabki* so'zları *dastlabgi*, *ertalabgi* tarzida yozilishi kerak. Sinchkovlik bilan mulohaza qilinsa, imlosida chalkashliklar yuzaga

keladigan so‘zlarni ko‘plab topish mumkin.Xususan,turarjoy,temiryo  
so‘zлari aks etgan barcha lavhalarda ushbu so‘zлar turar joy,temir yo‘l  
tarzida deyarli ajratib yozilgan.Chunki 1956-yilda qabul qilingan “Imlo  
qoidalari” bu so‘zlarni ajratib yozishni talab etgan.Bu “Imlo qoidalari”  
qayta isloh etilgach,unda turarjoy,temiryo ‘l,yerosti kabi so‘zlarni  
qo‘shib yozish qat’iy belgilandi.Shunday bo‘lsa-da, bu so‘zlarni ajratib  
yozish omma orasida davom etib kelmoqda.Bu holatni imlo qoidalarni  
bilmaslik natijasi sifatida baholash mumkin.Axir “Imlo qoidalari”ning  
qo‘shib yozish shartlari berilgan bo‘limida shunday qoida keltirilgan:  
“Narsani uning rangi,mazasi,o‘zidagi biror narsasi va shu kabibelgilar  
asosida bildiruvchi qo‘shma otlar qo‘shib yoziladi. “Temiryo ‘l” so‘zi  
temir va yo‘lso‘zлari birikuvidan hosil bo‘lgan va temir unda yo‘l  
so‘zining belgisini bildirib kelgan.Temiryo‘l – temir-tersaklardan barpo  
etilgan yo‘l.Bu so‘zning imlosida doimo yuqoridagi qoidaga tayanish  
lozim.Yoki turarjoyso‘zining imlosi “Imlo qoidalari”ning 43-bandiga  
mos keladi.Unda: “Narsaning biror maqsad, ish uchun  
mo‘ljallanganligini bildiruvchi qo‘shma otlar qo‘shib yoziladi”, – deb  
aytilgan.Darhaqiqat, turarjoy o‘rin-joy oti bo‘lib, turar sifatdoshiga joy  
so‘zining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan.Ushbu yasalma “yashashuchun  
mo‘ljallangan makon” degan ma’noni bildiradi.Demak, turarjoy  
so‘zining ajratib yozilishi katta xatolikdir. Shuningdek, hozirgi kunda  
mavjud ovqatlanish shoxobchalari, yangi ochilgan va chet el taomlari  
tayyorlanadigan kafe, restoranlar peshtaxtalaridagi lavhalar, ayniqsa,  
xatoliklar bilan to‘lgan. Bunday xatoliklar faqat orfografiya bilan  
bog‘liq emas. Ularda ko‘plab punktuatsion xatoliklarni ham uchratish  
mumkin. Quyidagi jumлага e’tibor qiling: OQTEPA LAVASH.  
Birinchidan, bu yerda Oqtepa joy nomi bo‘lib kelgan hamda “Ikkinch  
qismi turdosh ot bilan yoki obod so‘zi bilan ifodalangan joy nomlari  
qo‘shib yoziladi”, – degan imlo qoidasiga asosan, bu so‘z qo‘shib  
yozilishi shart. Ikkinchidan, bu yerda ushbu birlik atab qo‘yilgan nom  
bo‘lganligi uchun “Atab qo‘yilgan joy nomlari qo‘shtirnoq ichida  
yoziladi” qoidasiga binoan, qo‘shtirnoqqa olinishi kerak. Joylardagi  
restoranlarda SAHOVAT tarzida yozilgan lavhalarni siz ham  
uchratgandirsiz. Bu so‘z imlosida ham yuqoridagi qoidalarga tayaniladi.  
Hozirda yozma nutqda x va h tovushlarini qo‘llashda jiddiy  
chalkashliklar yuzaga kelmoqda. Saxovat so‘zida x tovushi o‘rnida h  
tovushi talaffuz qilinsa ham, x harfi yoziladi.U joy nomi bo‘lgani uchun  
“SAXOVAT” shaklida qo‘shtirnoq ichida yozilsa, maqsadga  
muvoifiqdir. Yana bir misol: har bir yilga atab chiqariladigan shior

matnlarida *ona Vatan* so‘zi xuddi shu shaklda ifoda etilgan: “BETAKRORIMSAN, YAGONASAN, ONA VATANIM — O‘ZBEKISTONIM! *Ona Vatan* so‘zlarini orasida qiyoslash munosabatining mavjudligi barchaga ayon. Azaldan Vatan onaga o‘xhatiladi. Qiyoslash, taqqoslash, zidlash, tenglik munosabati mavjud o‘rinlarda tireni qo‘llash lozimligi tinish belgilarining ishlatilish qoidasida aytib o‘tilgan. Shu qoidaga binoan, *ona Vatan* so‘zlarini o‘rtasida tire qo‘yilishi kerak. Bundan tashqari, G‘O‘ tovushlarini bosma shaklda aks ettirganda, ulardagi belgini tutuq belgisi bilan berish holatlari ko‘p kuzatiladi. Bu ham bitta imloviy xatolikdir. Ushbu tovushlarning bosma va yozma shakllari o‘zaro farqlanadi. Ularni bosma shaklda aks ettirish uchun ko‘chish belgisidan foydalaniladi. Ko‘chish belgisi harfning o‘ng tomoniga qo‘yiladi va teskari vergul ko‘rinishiga ega.

Til – ma’naviyat ko‘zgusi. Yuksak ma’naviyat esa yengilmas kuchdir. Ona tilini asrab-avaylash, unga hurmat bilan munosabatda bo‘lish har birimizning fuqarolik burchimiz hisoblanadi. Bugungi davrda savodxon insonlarning kamayib borayotganligi ona tiliga bo‘lgan e‘tiborsizlik oqibati emasmi? Boshqa millat vakili o‘zbek tilida xato gapirsa, xato yozsa, bularni kechirish mumkin. Lekin o‘z tilidan foydalanishda xatoliklarga yo‘l qo‘yilsa, bu ona tiliga bo‘lgan hurmatsizlik belgisidir. Menimcha, ikki-uchta tilni chala bilgan insondan ko‘ra, bitta tilni – o‘z tilini mukammal bilgan insonning jamiyatga ko‘proq foydasi tegadi. Imlo – savodxonlik asosi. Imlo qoidalarini bilgan inson so‘zlarni yozishda qiyinchiliklarga duch kelmaydi. Xalqimizda: “Tilga e‘tibor – elga e‘tibor”, –degan naql bor. Shunday ekan, ona tilimiz rivoji uchun barchamiz mas’ul ekanligimizni hech qachon unutmasligimiz kerak.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Madvaliyev, E.Begmatov. O‘zbek tilining imlo lug‘ati.– Toshkent:Akademnashr, 2013.
2. Rahmatullayev Sh.O‘zbek tilining etimologik lug‘ati (1-,2-,3-tom).– Toshkent:Universitet, 2000.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati.–Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006-2008.
4. Rahmatullayev Sh., Hojiyev A.O‘zbek tilining imlo lug‘ati.–Toshkent: O‘qituvchi, 2011.

## **RUHIYATNI ANGLATUVCHI FRAZELOGIZMLARDA SEMANTIK KO‘CHISH TURLARI**

Frazeologiyaning shakllanish tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, u tilshunoslikning boshqa bo‘limlariga qaraganda ancha yangi bo‘lib, XX asrning yillardan boshlab leksikologiyaning bag‘ridan alohida bo‘lim sifatida ajralib chiqqan. Ushbu bo‘limning mustaqil soha sifatida shakllanishida mashhur rus akademigi V.V.Vinogradovning xizmati beqiyosdir. Ushbu olimni frazeologiyaning asoschisi deb atash o‘rinlidir. Shuningdek, buyuk fransuz olimi F.de Sossyur ham o‘z davrida frazeologizmlarni tildagi tayyor birliklar sifatida qayd etgan.

Barcha tillarda bo‘lgani kabi, o‘zbek tilshunosligida ham frazeologiya sohasida anchagina ko‘zga ko‘rinarli ishlar amalga oshirilmoqda. O‘zbek tilshunos olimlari frazeologizmlarning o‘ziga xos turli jihatlarini ochib berishga intilmoqda.

Frazeologiya (idiomatika) ko‘proq insonning ruhiyati, kishilar o‘rtasidagi munosabatlar, ijtimoiy-etnik baholarni ifoda etadi. Dunyoda frazeologizmlar mayjud bo‘Imagan tilning o‘zi yo‘q. Frazeologiyani o‘rganish o‘ziga xos uslubni talab etadi, shuningdek, boshqa bir qator tilshunoslik fanlari leksikologiya, grammatika, stilistika, fonetika, tarix, mantiq va mamlakatshunoslik fanlari ma’lumotlariga tayangan holda o‘rganishni taqozo etadi.

Frazeologizmlar hozirgi zamon frazeologik sistemasining asosiy birligi bo‘lib, tildagi mayjud so‘z birikmalarining umumiyligini hisobidan juda qiyinchilik bilan farqlanadigan ko‘p aspektli til hodisasi hisoblanadi. Shuning uchun ham tilshunoslikka oid adabiyotlarda frazeologizmlarning lingvistik mohiyati masalasi hanuzgacha munozaraligicha qolmoqda.<sup>5</sup> Sh. Balli frazeologiyaning asosiy belgisi uning o‘rnini o‘sha iboraning ma’nosiga to‘gri keladigan so‘z bilan almashtirish mumkin yoki mumkin emasligi, deb hisoblasa<sup>6</sup>, B. A. Larin uning asosiy belgisi frazeologik birlklarni tashkil qiluvchi alohida so‘zlarning ma’nosidan o‘sha birliklar umumiyligini ma’nosining kelib chiqmasligidadir, deb hisoblaydi<sup>7</sup>.

<sup>5</sup> <http://frazeologiyahaqida/uz/7630O/uz>.

<sup>6</sup> Балли Ш. Французская стилистика. –М.: Vishaya shkola, 1961. – С. 100

<sup>7</sup> Ларин Б. А. Очерки по фразеологии. – Л.: 1956. – С. 202–224

Frazeologizmlar ikki yoki undan ortiq leksemadan tashkil topgan bo'lib, ular mustaqil yoki yordamchi so'z turkumlariga tegishli bo'ladi. Masalan, o'zbek tilida *tarvuzi qo'lting idan tushmoq, ko'ngli toza, tepe sochi tikka bo'lmoq* va boshqalar.

Ma'lumki, frazeologik birliklardan anglashiladigan ma'no ular tarkibidagi so'zlarga xos leksik ma'nolarning oddiy (arifmetik) yig'indisi bo'lmay, balki ustama ma'no sifatida, shu bilan bir vaqtida, ko'chma ma'no sifatida gavdalanadi. Har ikki holatda ham frazeologik birlik tarkibidagi leksemalar o'z mustaqilligini yo'qotadi. Shu jarayonda frazeologizmlar tarkibidagi so'zlar ma'no ko'chishining u yoki bu turi orqali faollahshib, frazeologizm ifodalamoqchi bo'lgan ma'noga o'tadi. Bu esa umumiyl tilshunoslikning semantika, ya'ni so'zning ma'nosiga oid masalalaridan biridir. *Semantika* atamasining o'ziga umumiyl tilshunoslikda shunday ta'rif beriladi: "*Semantika – (yunon. semantikos – belgilovchi, bildiruvchi) – so'z, so'zning bir qismi, so'z birikmasining ma'no tarafidir.*" Demak, semantika tilshunoslikning so'zlarning ma'nosini o'rganuvchi maxsus bo'limidir.

*Metafora, metonimiya, sinekdoxa* kabi hodisalar semantik ko'chish turlari hisoblanib, frazeologizmlarda bu holat yaqqol ko'zga tashlanadi. Frzaeologizmlarning o'zi ham bir nechta turlarga ajralib ketadi. Yuqorida aytganimizdek, frazeologizmlarda ruhiyat, ya'ni xursandchilik, g'am-tashvish, qo'rquv, hayrat, xafagarchilik kabi insonning ichki kechinmalarini ifodalash xususiyati yuqori bo'ladi. Quyida "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati" da berilgan ruhiy holatni bildiruvchi ba'zi iboralarni semantik ko'chish turlari bo'yicha tahlilga tortamiz.

**Ma'noning ko'chishi** – bir predmet (yoki hodisa) nomining keyinchalik boshqa predmet yoki hodisani anglatish xususiyatiga ega bo'lishi. Bunday ko'chish shu nom bilan atalayotgan ikki yoki undan ortiq predmet (hodisa) o'rtasidagi aloqadorlikka asoslanadi.

Masalan, "*Nafasingizni iliq qiling*" iborasida **nafas** so'zi **metafora** asosida ko'chgan. Aslida, **nafas** leksemasining bosh (to'g'ri) ma'nosи «o'pkaga olinadigan va undan chiqariladigan havo»dir, ammo *nafasingizni iliq qiling* deganda **nafas** leksemasi «*havo*»ni emas, «*gap*»ni va «*niyat*»ni ifodalamoqda, chunki nafas olish va nafas chiqarishsiz gap shakllanmaydi, gapsiz esa fikr-niyat ifodalanmaydi: nafas gap, fikr-niyat o'rtasidagi ana shu aloqa va bog'lanish **nafas** leksemasining mazmun-mundarijasidagi ma'no ko'chishlariga sabab bo'lgan.

Tilda ma’no ko‘chishining quyidagi turlari uchraydi:

### 1. Metafora yo‘li bilan ma’no ko‘chirilishi.

a) ifodalanayotgan predmetlar (hodisalar) o‘rtasidagi shakliy o‘xshashlik asosida: **burun** («*odamning burni*» – bosh leksik ma’no); **burun** («*choynakningburni*» – hosila ma’no);

. b) ikkita belgi xususiyat o‘rtasidagi nisbiy o‘xshashlik asosida: **tez** («*oz vaqt ichida, darrov*»-bosh leksik ma’no: *majlis tez tugadi*); **tez** («*darrov achchiqlanadigan, jizzaki*»– hosila ma’no: *tez odam*). Frazeologizmlarda metafora asosida ma’no ko‘chishining ikki turini ajratish mumkin.

1. Frazeologizm tarkibidagi faqat bir yoki ikki so‘z metafora yo‘li bilan ifodalanadi. Qolgan leksemalar esa o‘z ma’nosini saqlab qoladi. Masalan, *ta ’bi xira bo ’lmoqiborasidagi ta ’b va bo ’lmoq* leksemalari o‘z ma’nosida, *xira* leksemasi esa ko‘chma ma’noda qo‘llangan. *Xira* so‘zi, aslida, *yorug‘* so‘ziga antonim sifatida *nursiz* ma’nosini beradi. Bu iborada esa uning ma’nosini *qorong‘i* semasini ifodalab, frazeologizm *kayfiyati yomonlashmoq* ma’nosini berishiga xizmat qilgan. Chunki *xira, qorong‘i* so‘zлari salbiy bo‘yoqdorlik xususiyatiga ega bo‘lib, aynan shu sema frazeologizmda metaforaga uchragan.

2. Frazelogizmdagi barcha leksemalarning to‘liq metaforaga uchrashi. Bunda ibora tarkibidagi barcha leksemalar ko‘chma ma’noda qo‘llanadi. Lekin bu iboralarni faqat kontekstdan bilish mumkin, chunki to‘lig‘icha metaforaga uchragan frazeologizmlar sodda gaplar bilan omonimlik hosil qiladi. Masalan, *tishining oqini ko ‘rsatmoq* iborasi *xursand* ma’nosini beradi. Bu frazelogizm bevosita inson xursand bo‘lganda tashqi ko‘rinishida yuz beradigan o‘zgarish asosida hosil bo‘lgan.

*Chuchvarani xom sanamoqiborasи* ham to‘liq metaforaga uchragan. Bu iboradan behuda xayolga berish, xomtama bo‘lish kabi vaziyatlarda qo‘llaniladi. Bu iborada mental xususiyatlar ham aks etgan. Xamirlı ovqatlar, boshqa Sharq xalqlari kabi, o‘zbeklarning ham sevimli taomlaridan hisoblanadi. O‘zbek oilalarida shunday odat bor: pishmagan mahsulotlar, xususan, chuchvara, non kabilar xomligida sanalmaydi. Chunki pishguncha ularning birortasiga ziyon yetishi mumkin deb hisoblaydilar. Bu ibora ham aynan shu fikrlar natijasida paydo bo‘lgan. Iboradagi so‘zlar kontekstda kelganda har biri mustaqil ma’noni ham anglatishi mumkin. Masalan: *Oshpaz yordamchisi chuchvaralarni xomligida sanadi*.

O‘zbek tilida frazeologik birliklarni semantik ko‘chish turlari asosida tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Frazeologizmlar til hodisasi sifatida ma’lum bir til egasining milliy mansubligi, tarixi, ijtimoiy ahvoli haqida xabar beradi.

2. Frzaeologizmlar so‘zlarning shunchaki yig‘indisi bo‘lmay, balki semantik ko‘chish asosida qayta yaratilgan hosila ma’nodir.

3. Metafora asosida hosil bo‘lgan ruhiy holatni ifodalovchi frazeologizmlar miqdori ko‘p bo‘lib, ularda insonning xursandchilik, qo‘rquv, hayrat kabi hissiy kechunmalari ifodalanadi. Shuningdek, metonimiya, sinekdoxa asosida hosil bo‘lgan frazeologizmlar ham inson ruhiy holatini anglatishda tildagi tayyor birlik sifatida o‘z o‘rniga ega.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Балли Ш. Французская стилистика.—М.:Высшая школа, 1961.
- 2.Ларин Б. А. Очерки по фразеологии. – Л.,1956.
- 3.Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. –Т., 1978.
- 4.<http://frazeologiya haqida//uz/7630O/uz>.

*M.Oqmamatova,  
O'DJTU talabasi*

## ONOMASTIKANING MILLIY MADANIY SO‘ZLARDAGI O‘RNI

Ma’lumki, atoqli otlar, geografik nomlar tarjimada doim bir xil beriladi.Nomlar, ularning turlari, nomlanish sabablari bilan shug‘ullanuvchi tilshunoslik bo‘limiga **onomastika** deyiladi.

Atoqli otlar nomlanuvchi obyekt turiga ko‘ra bir necha guruhga bo‘linadi.

Shaxs va ularga qo‘yilgan nomlar **antroponim** (lotincha anig opaz – shaxs, odam; opima – nom)lardir.

Said Ahmadning “Jimjitlik” romani misoldida onomastikaning bir necha turlarini o‘rganib chiqamiz. Asarning bosh qahramoni – Tolibjon. U hayotda juda ko‘p qiyinchiliklarni ko‘rgan, dunyo ko‘rgan, fidoiy inson. *Tolib* so‘zi arabcha “ilm”, “ta’lim”, “talaba” so‘zlaridan olingan bo‘lib, *ilmli*, *o‘qimishli* ma’nolarini anglatadi. Asarni o‘qish davomida bu qahramon obrazi ismi jismiga mos ekanligining guvohi bo‘lishimiz mumkin.

Shuningdek, mazkur asarning yana bir qahramoni—Jayrona jayronday sho'x, shaddod qiz. U ham bilimli, ko'p tillarni biladigan, dunyoqarashi keng. Ana shu zukkoligi bois hayotning ko'plab qiyinchiliklarini osongina yenga oladi. Mirvaliday ustomon kishining tuzog'idan qutuladi. Asarda Jayronaga shunday ta'rif beriladi: "...*uning qaddi-qomatiga, sutga chayilgandek oppoq yuzi, zulukdek qoshlariga, chaqnab turgan ko'zlariga boqib, jinni bo'lay degandi*".<sup>8</sup>

Jayron, aslida, kiyikning bir turi bo'lib, tutqich bermas hayvondir. Uni tutish, qo'lga o'rgatish qiyin. Jayrona ham ana shunday qat'iyat egasi. Badiiy asarlardagi obrazlar ismlari bevosita shu asar qahramonining dunyoqarashi va hayotining qaysidir jihatlarini ham ochib berishga xizmat qiladi. Bunday asarlarni ingliz tiliga tarjima qilganda asardagi milliy madaniy so'zlar leksikasiga kiruvchi shaxs nomlari tarjimasida ana shu jihatlarni chuqur anglash va ularni alohida izohlar orqali berish o'rinali bo'ladi. Bu jarayon nafaqat o'zbek tilidan ingliz tiliga, balki, aksincha tarjimalarda ham ahamiyatga ega.

Quyida Daphne du Maurierning "Rebecca" asaridan olingan misollar tahliliga to'xtalamiz. Bu asar bosh qahramonlaridan biri Maxim de Winter. *Maxim* so'zi ingliz tilidan tarjima qilinganda *shior, tamoyil* degan ma'nolarni anglatadi. Asar qahramonining ham hayotda yashashdan maqsadi, shiori bo'lib, u o'z oldiga qo'ygan maqsadiga tezroq erishishga harakat qiladi. *Winter* so'zi esa yil fasllardan eng ma'yusi — qishni bildiradi. Qish fasli o'zining tinch, sokinligi bilan boshqa yil fasllaridan ajralib turadi. Asar qahramoniga ham bejizga bunday nom berilmagan. Buni asarda qahramonga berilgan ta'rifdan ham bilib olishimiz mumkin: *He was a dark-haired, handsome man. His face was pale and his dark eyes had a sad, lost look.*<sup>9</sup>

"Rebecca" asarining yana bir qahramoni — Mrs Van Hopper. Bu asar qahramoni o'ziga bino qo'ygan, boy insonlar qurshovida bo'lishni yoqtiradi. *Van* so'zi ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilinganda *furgon* ma'nosini anglatadi. Holbuku, bu ayolga berilgan quyidagi ta'rifga ahamiyat bersak: *Mrs Van Hopper was not a pleasant woman. She loved to mee people who were rich and famous.*<sup>10</sup> Bu o'rinda ta'rif asar qahromoniga mos nom tanlanganini yaqqol ochib bergen. Asarning qahramonlaridan yana biri Frank Crawleydir. *Frank* so'zi ingliz tilidan tarjima qilinganda *samimi*, *ochiq, ko'nglidagini yashirmaydigan* degan

<sup>8</sup>Said Ahmad «Jimjitlik».—Toshkent: O'zbekiston, 2008.—B.73.

<sup>9</sup>Daphne duMaurier Rebecca. Upper level. Retold by Margaret Tarner. Page -9.

<sup>10</sup>Shu manba.—B.8.

ma'nolarni anglatadi. Haqiqatan ham, asar qahramoni samimiy bo'ladi. Buni yozuvchining asar qahramoniga ism tanlashdagi mahoratidan ham bilib olsak bo'ladi. Nomlar va nomshunoslik har qanday milliy til leksikasining ma'naviy hayoti bilan, uning qadriyatlari bilan chambarchas bog'liq hodisadir. Xuddi shu kabi jarayonni ingliz tilidagi asarlarning o'zbek tiliga tarjimasida ham kuzatish mumkin va ularda ham. alohida izohlar, sharhlar bilan ismlar tarjimasi berilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shu bois badiiy asarga onomastika bilan bog'liq tushunchalar, leksemalar shu millatning milliy madaniy an'analari bilan hamohang tarzda beriladi va bu leksema tarjimada, albatta, o'z ma'no qirralarini to'la anglatmog'i muhimdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Daphne duMaurier.Rebecca. Upper level.Retold by Margaret Tarner.
2. Said Ahmad.Jimjitlik. – Toshkent: O'zbekiston, 2008.
3. Macmillan English dictionary for advanced learners. New adition. 2012.

*D.Murodova,  
ToshDO 'TAU magistranti*

### SINTAKTIK BIRLIKLARDA NEYTRALLASHUV

Keyingi yillarda til birliklariga sistem hodisa sifatida yondashish, o'zbek tilshunosligida ham sintaktik birliklarning shakli va mazmuniy jihatlarini uzviy bog'liqlikda o'rghanishga e'tibor kuchaydi.

Til birliklarining zidlanishga asos bo'lgan farqlovchi belgilari muayyan nutqiy sharoitda zidlanish belgisini yo'qotadi. Bu hodisa tilshunoslikda **neytrallashuv** deb yuritiladi. Til birliklarining zidlanishga asos bo'lgan belgining nutqiy sharoitda neytrallashuvi muayyan omillar ta'sirida yuzaga chiqadi. Fonologik sath birliklari uchun neytrallashuv tushunchasini qo'llagan D.Nurmonova unli va undosh tovushlarda zidlanish belgisining yo'qolishini fonemalarning so'zdagi joylashgan vaziyati (pozitsiyasi) bilan bog'liq tarzda amalga oshishini aniqlaydi.<sup>11</sup>

<sup>11</sup> Nurmonova D., O'sarova G. Lisoniy birliklar zidlanishlarining neytrallashuvi // Tilshunoslik va adabiyotshunoslik masalalari. – Andijon, 2002. –B.72-73.

A.Nurmonov esa bu masalaga ayrim morfologik birliklar misolida munosabat bildiradi. Olim “Sintaktik konstruksiyalar tasdiq va inkor oppozitsiyalarining neytrallashuvi” nomli maqolasida tasdiq va inkor belgilari asosida zidlanuvchi ravishdosh o‘ramli sintaktik konstruksiyalarda zidlanish belgisining yo‘qolishiga inkor shakldagi ravishdosh o‘ramlarning nutqda ikkilamchi vazifada – tasdiqni ifodalashda qo‘llanishi sabab bo‘lishini ko‘rsatadi. Shuningdek, u kesimi **bormi**, yo‘**qmi** so‘zlaridan tashkil topgan so‘roq gaplarda tasdiq va inkorni ifodalovchi **bor**, yo‘**q** so‘zları o‘rtasidagi zidlanish belgisining neytrallashuvi jarayonini tekshirib, neytrallashuvga yo‘**q** so‘zining ikkilamchi vazifada qo‘llanishi sabab bo‘lishini aniqlaydi.<sup>12</sup>

Til birliliklariga xos farqli belgilarning muayyan nutqiy qo‘llanishda neytrallashuvi masalasini o‘zbek tilshunosligida so‘z turkumlari doirasida O.Murodullayeva tadqiq etgan.<sup>13</sup>

Keyinchalik sintaktik sath birliliklari uchun ham bu termin qo‘llanila boshlandi. Chunki mo‘tadillashuv tilning barcha sathlarida amal qiluvchi hodisa hisoblanadi. Sintaktik birliliklarning oppozitsiyaga kirishuvchi a’zolari ma’lum nutqiy jarayonda mazmunan bir xil bo‘lib qolishi mumkin. A.Nurmonov ham sintaktik neytrallashuv, fonologik neytrallashuvdan farqli ravishda, ikki xil ko‘rinishga ega ekanligini ta’kidlaydi. Bular oppozitiv a’zolarning mazmunan bir xil bo‘lib qolishi va bir oppozitsiyaning inkor a’zosi bilan ikkinchi oppozitsiya tasdiq a’zosining mazmunan bir xil bo‘lib qolishidir.<sup>14</sup>

Sintaktik sathda, sodda gap sathida darak, so‘roq, buyruq gaplarning shakli va mazmuni o‘rtasidagi zidlanish belgilaringning yo‘qolishi natijasida ham neytralizatsiya hodisasi yuz berishi haqida ma’lum izlanishlar mavjud.<sup>15</sup>

Sintaktik birliklar, xususan, so‘roq gaplarning shakli va mazmuni o‘rtasidagi zidlanish belgilaringning yo‘qolishi natijasida ham mo‘tadillashuv yuz berishi mumkin. Ma’lumki, so‘roq gaplar sof so‘roq semasini ifodalaganda uning shakli va mazmuni o‘rtasida mutanosiblik bo‘ladi. Boshqa holatlarda nomutanosiblik kuzatiladi. Shakl va mazmuni

<sup>12</sup> Nurmonov A. Sintaktik konstruksiyalar tasdiq va inkor oppozitsiyalarining neytrallashuvi // O‘zbek tili va adabiyoti. –T., 1982. – №1. – B. 47-51.

<sup>13</sup> Murodullayeva O. O‘zbek tilida olmoshlar mo‘tadillashuvi // O‘zbek tili va adabiyoti. – T., 2010. – №3. – B. 78-79.

<sup>14</sup> Nurmonov A.Sintaktik konstruksiyalar tasdiq va inkor oppozitsiyalarning neytrallashuvi // O‘zbek tili va adabiyoti. – T., 1982. – №1. –B.47-51.

<sup>15</sup> Nurmonova D.Sintaktik sathda neytralizatsiya hodisasi // O‘zbek tilshunostigining dolzarb masalalari (Respublika ilmiy-nazariy anjumanı materiallari). – Toshkent, 2009. №3.B.49-50.

nomutanosib bo‘lgan so‘roq gaplarning tarkibida so‘roq vositalari ishtirok etib, faqat shakl tomon dangina so‘roq gap sanaladi. Lekin so‘zlovchining niyati o‘ziga noma’lum bo‘lgan voqeа-hodisa haqida so‘rash emas, balki o‘ziga ma’lum voqeа-hodisa haqida axborot berishdan iborat. *O‘zingiz o‘ylab ko‘ringlar, aziz do’stlar, mustabid tuzum, mustamlakachilik davrida biz kim edik? Taqdirimiz, erkimiz kimi larning qo‘lida edi? Xo‘s, o‘zimiz-chi? O‘zimiz o‘zligimizni bilarmidik? Qanday mo’tabar zamin, ulug ajdodlarimizning o‘lmas meroslari bilan oziqlangan elning farzandlari ekanimizni anglarmidik?* (I.Karimov)

Shakl va mazmuni nomutanosib bo‘lgan so‘roq gaplar ikki guruhga bo‘linadi: 1) so‘roq-darak gaplar; 2) so‘roq-buyruq gaplar.

So‘roq-darak (ritorik so‘roq gaplar) gaplarda darak mazmuni ifodalanadi. Bunday gaplar shakl tomonidan tarkibida so‘roq vositalari ishtirok etishi belgisiga ko‘ra so‘roq gaplar bilan paradigmatisk munosabatga kirishsa, mazmun jihatidan ma’lum voqeа, belgi-xususiyat haqida axborot berish belgisiga ko‘ra darak gaplar bilan paradigmatisk munosabatga kirishadi. Bu xildagi gaplarda shakl va mazmun o‘rtasida, ko‘pincha, ikki belgi asosida ziddiyat mavjud bo‘ladi: a) ifoda maqsadiga ko‘ra ziddiyat; b) tasdiq-inkor belgisiga ko‘ra ziddiyat.

Ifoda maqsadiga ko‘ra ziddiyatda so‘roq shakli orqali darak ma’nosi ifodalanadi. Masalan: *Shaharda chiqindilarni tashish uchun maxsus transportlar qo‘yilgan. Qishloqlarda esa bu tizim tashkil etilmagan. Nima, qishloqda chiqindi chiqmaydimi?* (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev nutqidan) gapida “*chiqindi chiqadi*” darak mazmuni ifodalangan.

Tasdiq-inkor belgisiga ko‘ra ziddiyat bo‘lgan gaplarda tasdiq shakl orqali inkor ifodalanishi, yoki aksincha, inkor shakli orqali tasdiq ifodalanishi mumkin. Masalan: *Bizni bo‘ri yermidi? Yosh narsalarga qarilarni aralashtirib nima bor? Siqilib o‘lmaydimi odam?*

*Jin urarmidi?* (Cho‘lpon) gapidan “*jin urmaydi*” propozitsiyasi yashirin ifodalangani seziladi. “*Yosh qizlarning o‘zlarini yuborib bo‘ladimi, qalay? Bitta-yarimtamiz birgalashmasak bo‘lmas?*” (Cho‘lpon) gapida “*birgalashishimizkerak*” tasdiq ma’noli propozitsiya ifodalangan.

Buyruq mazmunini ifodalovchi so‘roq gaplar ham borki, bu turdagи gaplar so‘roq-buyruq gap hisoblanadi. So‘roq-buyruq gaplar shakl tomonidan so‘roq vositalarning ishtirok etishiga ko‘ra so‘roq gap hisoblansa ham, lekin u mazmunan buyruqni ifodalaydi. Shuning uchun ham buyruq gaplar bilan mazmuniy paradigmatisk munosabatga kirishadi: *Zebinisaxon qanilar? Saltanatxon, aylanay, o‘rtoqjoningizni*

*topmaysizmi?* (Cho'lpón) “*o'rtoqjoningizni toping*” mazmuni angashiladi.

So'roq-buyruq gaplarda ham shakl va mazmun o'rtasida ikki xil ziddiyat mavjud bo'ladi: a)ifoda maqsadiga ko'ra ziddiyat; b)tasdiq-inkor belgisiga ko'ra ziddiyat.

*Tinch qo'yasanmi?*(So'zlashuvdan) gapida so'roq shakli orqali buyruq mazmuni ifodalangan.

Ayrim hollarda bir oppozitsiyaning inkor a'zosi o'z mazmunini yo'qotib, o'ziga yaqin bo'lgan ikkinchi oppozitsiyaning tasdiq a'zosi bilan bir semantik paradigmmani hosil qiladi. Bu vaqtida inkor a'zo transpozitiv holatda qo'llangan bo'ladi. Mazkur hodisalar ham neytrallashuvning bir turi sifatida qaralishi mumkin.<sup>16</sup> Tasdiq-inkor belgisiga ko'ra oppozitsiyasi mo'tadillashgan so'roq gaplarni aniqlashda matn, nutq vaziyatiga ehtiyoj ortadi. Masalan:

- *Yemaysizmi? – dedi Robi opam. – Toliqib ketgandirsiz. – Bo'ldim!*  
– *dadam to'ngillab papiro tutatdi.* (O'.Hoshimov)

Misoldagi *Yemaysizmi?*gapi o'rnila *Yeysizmi?*jumlasini qo'llash mumkin. Chunki *Yemaysizmi?*(yeng) va *Yeysizmi?*(yeng) gaplari tasdiq-inkor belgisiga ko'ra oppozitsiyasi mo'tadillashgan bo'lib, bir semantik paradigmmani hosil qiladi.

Demak, tahlil natijasida ma'lum bo'ldiki, o'zbek tili sintaktik birliklarida, xususan, sodda gaplarda darak, so'roq, buyruq gaplarning shakli va mazmuni o'rtasidagi zidlanish belgilarining yo'qolishi natijasida neytrallashuv hodisasi uchraydi.

*S.Tuxtayeva,  
ToshDO'TAU magistranti*

## NEYROLINGVISTIKA-PSIXOLINGVISTIKANING YO'NALISHI SIFATIDA

XIX asr oxiri XX asr boshlarida lingvistikada tilga haqiqiy nutqiy faoliyatdan mavhumlikka olingan va qotib qolgan tizim sifatida qaralgan. Nutqni esa ushbu tizimning amalga oshirilishi deb bilishgan ko'pgina olimlarlingvistika fani predmetidan chiqaradi va psixologiyaning predmeti debhisoblaydi. Mashhur psixolog S.L.Rubenshteynning fikricha, “*Nutqda faqat psixologik aspekt mavjud*”. Tilga esa bunday qarashni qo'llab bo'lmaydi.

<sup>16</sup> Nurmonov A. Sintaktik konstruksiyalarda tasdiq va inkor oppozitsiyalarining neytrallashuvni // Tanlangan asarlar III jild. – T., 2012. – B. 191-196.

Til insonlar o'rtasidagi aloqa vositasi bo'lishi, jamiyatdagi jarayonlar to'g'risida xabar berishi bilan birga tinglovchiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatish xususiyatiga ham ega. Bilamizki, tilning hech bir imkoniyati nutqsiz, nutqiy faoliyatsiz amalga oshmaydi. "Til va tafakkurning birligi nutqda o'z ifodasini topadi. Nutq og'zaki va yozma shaklda mavjud bo'lib, unda fikrimiz moddiy shaklga kiradi".<sup>17</sup> Kishilar o'rtasidagi muomalaning asosiy vositasi hisoblangan yozma va og'zaki nutq psixologiyaga bog'liq bo'lgan eng murakkab nutqiy faoliyat shaklidir. Yozma va og'zaki nutq o'zining yuzaga kelishi, rivojlanish usuli, psixologik yondashuvlari bilan ham bir-biridan keskin farq qiladi. Ma'lumki, insonda, avvalo, og'zaki nutq shakllanadi. Og'zaki nutq esa bevosita jonli muloqot jarayonida yuzaga keladi.

Insonning nutqiy faoliyatini o'rganish bilan shug'ullangan olim L.S.Vigotskiyning nutqqa psixologik yondashuvi asosida psixolingvistik nazariya shakllandı. V.P.Belyanining fikriga ko'ra, "Psixolingvistika nutqiy ifodalarning shakllanishi va qabul qilinishi qonuniyatlari haqidagi fandir".<sup>18</sup> Demak, nutqiy faoliyatning nutqning shakllanishi, qabul qilinishi kabi psixologik mexanizmlarini psixolingvistika fani tadqiq etadi.

Nutq murakkab funksional tizim sifatida bosh miya tuzilishining turli sohalarini nutqiy faoliyatga jalg etadi. Bilamizki, ko'pgina insonlarda bosh miyada shish, bosh miyaga qon quyilishi, yallig'anish va shunga yaqin bir qancha psixik kasalliklar natijasida jarohatlanish ro'y beradi. Jarohatlangan bu insonlar o'zgalar nutqini tushunmaydi. Bu holatni o'rganish va unga yechim topish uchun, nafaqat neyroxirurgiya, balki tilshunoslik fani ham zarurdir. Ular nutqining qay tarzda qurilishi, qanday mexanizmlarga ko'ra faoliyat yuritishi va ishlashini aniqlash lozim bo'lgan. Buning natijasida esa psixolingvistika fani tarkibida neyrolingvistika fani yuzaga keldi. Bilishlarning alohida sohasi sifatida neyrolingvistika XX asrning 50-60-yillarda shakllana boshlagan, biroq bu fanning yuzaga kelishiga tibbiyotning afaziyalchalinganlarning davosi bilan shug'ullanuvchi sohasi hisoblangan afaziologiyaning amaliy talablari asosiy sabab bo'lgan, deb aytish mumkin.

Neyrolingvistika fani ko'pchilik tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. I.M.Sechenovning tadqiqotlariga asoslangan. Boduen de

<sup>1</sup> Xayrullayev M., Haqberdiyev M. Mantiq. – Toshkent, 1993. – B.31.

<sup>2</sup> Белянин В.П. Психолингвистика – М., 2004.

Kurtenening fikriga ko'ra, "Psixik hodisalarini fiziologik substratdan ajratib bo'lmaydi, demak, ularning barchasi faqatgina tirik miya bilan birga mavjud bo'la oladi va uning "o'lim"idan so'ng yo'q bo'lib ketadi".<sup>19</sup>

Neyrolingvistika nutqiy faoliyatning miyadagi mexanizmlarini va miyaga mahalliy shikast yetishi natijasida nutqiy jarayonlarda sodir bo'ladigan o'zgarishlarni o'rganadi.

Neyrolingvistika fanining vujudga kelishi va rivojlanishining asosiy bosqichlari neyropsixologiya va neyrolingvistika asoschisi Aleksandr Romanovich Luriya nomi bilan bog'liq. Bu olim nutqiy buzilishlarni tizimli tahlil qilishni lingvistika va psixolingvistikaning nazarii tushunchalari bilan umumlashtirgan va tadqiq qilgan.

A.Luriya hayoti davomida nutq muammolarini: uning ontogenezda shakllanishini, funksiyalarini, buzilishini, miya tuzilishini o'rgandi va bular haqida o'zining "Очерки психофизиологии письма", "Основные проблемы нейролингвистики", "Язык и сознание" va boshqa asarlarida keltirdi. A.Luriyaning 1950-yilda nashr etilgan "Очерки психофизиологии письма" kitobida va "Язык и сознание" monografiyasida inson ongingin shakllanishida nutqning rolini keltirib o'tadi va buni tadqiqot muammosining yangi jihatni deya hisoblaydi. A.Luriyaning monografiyasi, asosan, neyrolingvistik xarakterda bo'lib, u nutqning vazifasi va strukturasi haqida o'zining lingvistik tadqiqotlari bilan miya atrofiga mahalliy shikast yetishi natijasida nutqiy mulohaza va nutqning tushunilishidagi buzilish shakllarining farqlari haqidagi neyropsixologik ma'lumotlarni taqqoslaydi. U nutq hodisalarini kuzatish va o'rganish bolalar nutqini o'rganishga nisbatan murakkabroq ekanligini ta'kidlaydi.

Nutq nuqsonlarining namoyon bo'lish sabablari va ko'rinishlari turli-tumandir. Nutq nuqsonini o'rganish tadqiqotchidan nafaqat lingvistika va psixologiya bilan, balki inson fiziologiyasi va tibbiyot bilan ham bog'liq bo'lgan bilimlarning majmuasini egallahshni talab etadi.

Nutqiy zonalar nutqiy mexanizmlarning aniq lokallashtirilishini namoyon qiladi. Nutq mexanizmalarining mana shu ikki: nutqni ishlab chiqarish va qabul qilish kabi mexanizmi miyamizda turli xil mexanizm sifatida ajratilgan va ular normal sharoitlarda o'zaro bog'liq bo'ladi. Miyaga shikast yetishi ushbu ikki nutq mexanizmining buzilishiga olib

<sup>19</sup> Бодуэн де Куртенэ И.А. Из патологии и эмбриологии языка. – Варшава, 1885.

keladi. Bu esa turli afazik holatlarni yuzaga chiqaradi. Miyaning u yoki bu nutqiy mexanizmlar ishining buzilishiga sabab bo‘lувчи zonalarining shikastlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan nutq buzilishlari turlari **afaziya** deb nomlanadi. Shu sababli nutq buzilishlarining barchasini ham afaziyaga kiritish mumkin emas. Nutq mexanizmlarning buzilishi natijasida yuzaga kelgan nutqiy kamchiliklar til sathlarida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun nutq buzilishlarini o‘rganish bo‘yicha logopedik ishlarni tashkil etishda ona tilining o‘ziga xosligini ham inobatga olish zarur. Shuni ta’kidlash kerakki, nutqida kamchiligi bor insonlar nutqining etik jihatlarini o‘rganishda lingvistika insonparvar fan sifatida namoyon bo‘ladi.

Shuni xulosa qilish mumkinki, psixolingvistikada nutqiy ifodalarning shakllanishi va qabul qilinishi kabi psixologik qonuniyatlar o‘rganilsa, neyrolingvistikada miyaga shikast yetishi natijasida nutq mexanizmlarining buzilishi va nutqda yuzaga kelgan kamchiliklar o‘rganiladi. Nutq mexanizmlari harakati miya faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, nutq mexanizmlarining buzilish sabablarini bilish shaxslar nutqidagi kamchiliklarni aniqlashda va bartaraf etishda asosiy rol o‘ynaydi. Shuning uchun ham neyrolingvistika va psixolingvistika bir-biriga bog‘liq bo‘lib, ko‘pchilik olimlar tomonidan neyrolingvistika psixolingvistikaning yo‘nalishi sifatida talqin qilinadi.

*S.Igamberdiyeva,  
ToshDSHI magistranti*

## “QUTADG‘U BILIG”DAGI ARABCHA SO‘ZLAR POETIKASI

“Qutadg‘u bilig” turkiy yozma adabiyotning eng yirik qadimiy obidalaridandir. Bu asar – turkiy xalqlar iftixori, ular madaniyatining oliy ko‘rsatkichlaridan biri. Ammo uning ahamiyatini faqat turkiy xalqlar manfaati yo‘lidagina deb belgilash bir yoqlamalik bo‘lur edi. Bu xildagi asarlar butun insoniyatga, butun jahonga tegishli boladi. Shuning uchun ham ularning ahamiyati umumjahon miqyosiga molikdir. Asarni butun jahon olimlari o‘rganayotganligi ham mana shu miqyoslar bilan belgilanadi<sup>20</sup>. “Qutadg‘u bilig”ning lug‘at boyligining asosiy qismini turkiy so‘zlar tashkil qiladi. Shunga qaramay, sezilarli darajada, boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlar ham bor. Bular, asosan, arab va fors tillaridan o‘zlashgan so‘zlardir.

<sup>20</sup> To‘xliyev B. Yusuf Xos Hojib va turkiy xalqlar folklori. – T., 2014. – B. 5.

“Qutadg‘u bilig” islom ta’sirida arabcha-forscha so‘zlar turkiy tilga kirib kela boshlagan bir paytda yaratildi. “Qutadg‘u bilig”da o‘zlashgan so‘zlarning katta qismini arabcha so‘zlar tashkil qiladi. Ahamiyatli jihat shundaki, asarda qo‘llangan arabcha so‘zlar asarning badiiy boyligiga o‘z hissasini qo‘shtigan.Masalan, asarda ayrim arabcha so‘zlar orqali **tazod san’ati** hosil qilingan.Bunda qarama-qarshi ma’noli so‘zlar anglatuvchi tushunchalar bir-biriga mutlaqo zid (o‘t va suv) bo‘lishi, zidlik darajasi u qadar keskin bo‘limgan (qora va qizil), fe’Ining bo‘lishli-bo‘lishsiz shakllari orasidagi kabi (keldi - kelmadni) faqat shartli ravishdagina zidlanishi ham mumkin<sup>21</sup>.

*Tili yalğan erniy jafa qilqi ol,  
Jafa kimdä ersä oşal yilqi ol.  
Kişi yalğanında tilamä vafa,  
Bu bir söz sinanmiš öküş yilqi ol.*  
Ma’nosi: tili yolg‘on kishining qiladigan ishi jafodur,  
Jafo kimda bo‘lsa, o‘sha yilqidir,  
Kishi yalg‘aninda tilama vafa  
Bu bir so‘z sinanmish okush yilqi ol<sup>22</sup>

Ushbu to‘rtlikda “jafa” va “vafa” so‘zлari bir-birga zid ma’noli so‘zlardir. Mazkur so‘zlar orqali mumtoz adabiyot davrida ham tazod san’ati hosil qilingan. Mazkur so‘zlar bir-biriga qarama-qarshi ma’noli so‘zlar bo‘lishi bilan birga qofiyadosh hamdirlar. Ushbu so‘zlar ishtirokida yana bir misolga yuzlanamiz:

*Uruğlig kişilärniň qılıncı silig,  
Vafa birlä xalqqa yadığlı älig.  
Ariğsiz qılıncı vafasız, jafa,  
Nečä mä yetürsä şakar ham yilig*  
Ma’nosi: taglik kishilarning xulqi a’lo bo‘ladi,  
Vafo bilan xalqqa qo‘l uzatadilar,  
Nopokning xulqi bevafolik, jafo,  
Agarchi u shakar va ilik yedirsa ham<sup>23</sup>

Badiiy tasvir vositalari orasida shunday badiiy san’at borki, u shoirdan alohida mahorat talab qiladi. Mazkur san’at qoidalariga ko‘ra, bayt misrasidagi ikki yoki undan ortiq so‘zning yonma-yon yoki bir-biriga yaqin holda ohangdosh (o‘zaro qofiyadosh) bo‘lib kelishi orqali

<sup>21</sup> Quronov D., Mamajonov Z., va boshqa. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – T.,2010.– B-304.

<sup>22</sup> “Qutadg‘u bilig”dagi to‘rtliklar. Nashrga tayyorlovchi B. To‘xliyev va boshqalar. – T., 2004.– B.28.

<sup>23</sup>O‘sha asat. – B.32.

hosil bo‘ladi. **Izdivoj san’ati** “Qutadg‘u bilig”da arab tilidan o‘zlashgan so‘zlar orqali ham hosil qilingan:

*Aziz ol azizkimazizlarga iz,*

*Aniydün tegir iz, aziz emdi qız.*

*Ücüzkä ağrı ol, kiçigkä uluğ,*

*Yavuzqa yöläki, bedükkä ediz*

Ma’nosi: u azizdir, azizlar uchun izzatdir,

Izzat undan nasib bo‘ladi, shuning uchun aziz endi noyob.

U qadrsizga qadr, kichikka ulug‘dir,

*Yomonga hodi, buyukka yuksaklikdir*<sup>24</sup>

Ushbu to‘rtlikda “aziz” va “iz” so‘zлari bir misra tarkibida, yonmayon kelib she‘r ohangdorligini oshirishga xizmat qilgan.

“Qutadg‘u bilig” poetikasi yuksak darajada bo‘lgan asarlar sirasiga kiradi. Muallif o‘zining pand-u nasihatlarini, hikmatli so‘zlarini badiiy uslubda, badiiy vositalar bilan ifodalaydi. Shulardan yana biri **tardu aks** san’atidir. *Tardu aks – mumtoz adabiyotdagи she’riy san’at, bayt tarkibidagi ikki so‘z yoki birikmani avval ma’lum bir tartibda keltirib, so‘ng ularning o‘rnini almashtirib takrorlash*<sup>25</sup>. “Qutadg‘u bilig”da mazkur san’at arabchadan o‘zlashgan so‘zlar orqali hosil qilingan:

*Bu dunya qačar kim edersā anī,*

*Qalı qačsa andin edärür seni.*

*Yana dünqa öčlüg bu dunya nänji,*

*Yesā dunya, din yer, baqa kör munī.*

Ma’nosi: kim izidan borsa, bu dunyo qochadi,

Agar undan qochsang, u seni izlaydi.

Yana bu dunyo moli dinga o‘chlikdir,

Dunyo yeydigan bo‘lsa, dinni yeydi, bunga nazar sol.<sup>26</sup>

Ushbu to‘rtlikdagи “dunya” va “din” so‘zлari orqali tardu aks san’ati hosil qilingan.

Ma’naviy san’atlar sirasiga kiruvchi **muqobala** san’ati ham murakkab san’at turlaridandir. *Muqobala – mumtoz adabiyotdagи she’riy san’at: baytda avval ikki yoki undan ortiq bir-biriga muvofiq keluvchi narsa-tushunchalarni anglatuvchi so‘zlarni, so‘ng ularning ziddi bo‘lgan narsa-tushunchalarni bildiruvchi so‘zlarni keltirish*<sup>27</sup>. Masalan:

<sup>24</sup>O‘sha asar. – B. 15.

<sup>25</sup>Quronov D., Mamajonov Z., va boshqa. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – T., 2010. – B. 312.

<sup>26</sup>“Qutadg‘u bilig”dagi to‘rtliklar. Nashrga tayyorlovchi B. To‘xliyev va boshqalar. – T., 2004. – B. 53.

<sup>27</sup>Quronov D., Mamajonov Z., va boshqa. Adabiyotshunoslik lugati. – T., 2010. – B. 199.

*Uquşluğ, vafalıq, kişi tüzünü,*

*Yuluğlar kişikā qamuğ özini.*

*Arıgsız, jafalıq, qilinči otun,*

*Qalı aydi ersär qiyar sözini*

Ma'nosı: zakovatlı, vafoli, kishi(lar)ning yaxshisi,

Adamga butun jonini fido qiladi.

Nopok, jafokor, qilmishlari tuban (kishi),

Agarchi va'da bergen bo'lsa ham, so'zidan qaytadi<sup>28</sup>

Ushbu to'rtlikdagi birinchi misrada sanalgan so'zlarga uchinchi misradagi so'zlar zid ma'nolidir. Ahamiyatli jihatı shoir birinchi misradagi "vafalıq" so'ziga zid ma'no sıfatida uchinchi misradagi "jafalıq" so'zini tanlaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, "Qutadg'u bilig" poetik jihatdan mukammal asardir. Asar tilida o'zlashgan so'zlar ko'pchilikni tashkil qilmaydi. E'tiborlisi, muallif o'zlashgan so'zlar orqali ham go'zal badiiy ifodalar yarata olgan.

*L.Hayitova,  
ToshDO'TAU magistranti*

## AHMAD A'ZAM QISSALARINING TIL XUSUSIYATLARI

Ahmad A'zam – zamonaviy o'zbek qissachiligidə o'z o'rniga ega ijodkor. U "Hali hayot bor...", "Asqartog' tomonlarda", "Bu kunning davomi...", "Quroq" singari qissaları bilan keng kitobxonlar ommasiga yaxshi tanish. A. A'zam qissalarining o'ziga xos eng asosiy jihatı – ularning tili. "Kitobxonlarning aksariyati e'tirof etgan bu tilning o'ziga xosligi nimada?", "Ahmad A'zam tili qaysi badiiy til vositalari orqali shakllandi?" degan savollar tug'ilishi tabiiy. Mazkur maqolada shu masala to'g'risida fikr yuritishga harakat qilamiz. Bizningcha, bu savolga javobni, eng avvalo, yozuvchining ijodiy prinsipidan izlash lozim. A.A'zam "Yoshlik" jurnalida S.O'nar bilan bo'lgan suhbatida shunday degan edi: "Proza odam bilan odam bemalol, ochilib suhbatlashgani singari tabiiy bo'lishi kerak".<sup>29</sup> Ahamiyatli jihatı shundaki, A.A'zam qahramonning eng nozik ruhiy holatlarini, falsafiy mushohadalarini tasvirlashda ham shu prinsipga sodiq qoladi. O'quvchi qissalarning biror

<sup>28</sup>"Qutadg'u bilig"dagi to'rtliklar. Nashrga tayyorlovchi B. To'xliyev va boshqalar. – T., 2004. – B.43.

<sup>29</sup>A. A'zam. Til nomusi. – Toshkent: Akademnashr, 2013. –B.41

o‘rnida tasvirdagi mavhum, tushunarsiz ifodalarga qoqilmaydi. Ammo bu holat yozuvchi qissalarining serqatlamligi va falsafiyligiga daxl qilmaydi. Qissalarning tili har qancha sodda va samimiy bo‘lmisin, bu asarning jo‘nlashishiga olib kelmaydi, aksincha, o‘qishliligin oshiradi. Buni yozuvchining yutug‘i sifatida e’tirof etish mumkin. Chunki yozuvchi aynan shu hammaga tushunarli tasvirlari bilan qahramon kechinmalarining eng nozik qirralarigacha, ikir-chikirlarigacha ocha oladi. Qissalardagi aksariyat voqeа, holatlar barchamizga tanish. Demak, bu kechinmalar ham. Ammo uni badiiy asarda ortiqcha izohlarsiz, tabiiy tasvirlash har kimning qo‘lidan kelavermaydi.

“Negadir odam huzur bilan g‘iybat qilasan-u, keyin negadir ko‘nglingda juda noxush bir sezimlar uygonadi, o‘zingdan o‘zing irgana boshlaysan.”<sup>30</sup>

A. A’zam qissalari tilining o‘ziga xosligini ta’milagan til elementlari qatorida turli ibora, maqol va boshqa til birliklari (“Husnini tovoqqa solmoq”, “Oq uy-oshxonasi yo‘q”), shuningdek, takrorlar (*negadir...negadir*), undov va taqlid so‘zlar uchraydi. Bu unsurlardan har biri asarda yozuvchi badiiy niyatini ifodalashga xizmat qiladi. Xususan, “Asqartog‘ tomonlarda” qissasida o‘-o‘v, ho‘-o‘y, e-e, ho‘-o‘f, hiy-ya, ho‘y kabi undovlarning ko‘p qo‘llanilishi go‘andalik qilayotgan Shodi akaning anchayin jiddiy dard bilan kuylashini tasvirlashda qo‘l kelgan. Umuman, qissalar qahramonlari nutqida undovlardan keng foydalilanigan. Shuningdek, Ahmad A’zam qissalari qahramonlari nutqida respublikamizning boshqa hududlarida deyarli ishlatilmaydigan, faqat Samarqand aholisi nutqida qo‘llaniladigan ayrim so‘zlar (masalan, *sanjob so‘zi*) ванормальный, предварительно, грубый, заинтересованность, негласно, нарушение, все, план singari bir qator ruscha so‘z va so‘z birikmalari ham uchraydi. Ma’lumki, Ahmad A’zam milliy tilimizning haqiqiy jonkuyarlaridan biri edi. Yozuvchi o‘zimizda muqobili bo‘lgani holda, chet so‘zlarini ishlatish holatlarini qattiq tanqid qilgan. “Til nomusi” to‘plamidagi maqolalar fikrimizga dalil bo‘la oladi. Adabiy tilga qat‘iy amal qilish, milliy tilimizning sofligini saqlash tarafdoi bo‘lgan adibning o‘z asarlarida ham ruscha so‘zlarning ishlatilishini bu qissa voqealari sodir bo‘lgan davr muhiti bilan izohlash mumkin, qolaversa, sobiq tuzum davrida tilimizga o‘rnashgan ruscha so‘zlarning aksariyati hozirgacha iste’molda. Yozuvchi qahramonlari xarakterini, asosan, ularning nutqi

<sup>30</sup> A. A’zam. Bu kunning davomi. www.ziyouz.com.–B.12

orqali ochadi. Shunday ekan, obrazlarning tabiiyligini saqlash uchun ham ular nutqida ruscha so‘zlarni ishlatalishni lozim topgan bo‘lsa, ehtimol.“Hali hayot bor...” qissasi qahramonlardan biri Abduzafar aka – nashriyot direktori. Yozuvchi bu qahramonni kulgili holatda tasvirlaydi. Ammo bu kulguning tagi – zil. Chunki Abduzafar aka shunday mas’uliyatlari lavozimda ishlasa-da, bilimi haminqadar. Biroq yozuvchi biror o‘rinda qahramonning savodi haqida gapirmaydi, tanqid qilmaydi. Bu ishni so‘z o‘yini yordamida amalga oshiradi. Qissada direktorning o‘z xodimi bilan suhbatida uning “fazilatlari” o‘z-o‘zidan namoyon bo‘ladi:

- *Qanaqadir tanka, Takabuka...hokku... Men tan olmayman.  
Abduzafar aka ajablandi.*

- *Tankani tan olmaysiz? Jinnimi bu, tankni ham tan olmay bo‘ladimi? Tank bundan so‘rab o‘tiradimi? Yanchib o‘tib ketaveradi! Yo...tavba, tilining tutumi yo‘g‘-ey. <sup>31</sup>* Qissadagi shu singari tasvirlar har qanday murakkab ta’rif-u tavsiflardan ko‘ra jozibaliroq va kitobxonda yengil kulgu uygotadi. Bu yerda ozroq mubolag‘a ham borday. Ammo bunaqa obrazlar o‘zbek prozasiga xos (“Sariq devni minib” romanida Hoshimjonning kompostni kompot deyishi, “Temir xotin” dramasi qahramoni Qo‘chqorvoyning atamalarni buzib talaffuz qilishi). Bunaqa o‘rinlar asarning xalqchilligini ta’minlaydi va qahramon tabiatini ochib berishga xizmat qiladi. Ahmad A’zam qissalari tili haqida bir maqola doirasida tugal xulosalarga kelish qiyin, albatta. Bu masalada kengroq tadqiqotlar olib borish lozim. A.A’zam qissalari o‘ziga xos tili bois ham XX asr o‘zbek qissachiligidida o‘z o‘rniga ega. Shuning uchun ham bu masalani dissertatsiya doirasida kengroq yoritishni maqsad qilganmiz.

### Foydalilanilgan adabiyotlar:

- 1.A. A’zam. Til nomusi. – Toshkent: Akademnashr, 2013
- 2.A. A’zam. Hali hayot bor... - Toshkent: O‘zbekiston, 2011
- 3.A. A’zam. Bu kunning davomi. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)
- 4.A. A’zam. Asqartog‘ tomonlarda. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)

<sup>31</sup>A. A’zam. Hali hayot bor... –Toshkent :O‘zbekistonNMIU, 2011. –B.19

## MATN IDROKI VA TALQINI YUZASIDAN MULOHAZALAR

Ma'lumki, kishilar orasida bir so'zni turli xil tushunish, talqin qilish holatlari uchrab turadi. Bu, albatta, har bir xalqning o'ziga xos dunyoqarashi, milliy mentaliteti va yashash sharoitidan kelib chiqadi. Talabalar ma'lum bir millat vakillariga xos bo'lgan umumiyl fikrlash tarzi yoki dunyoqarashidagi farqli jihatlarni quyidagi matn misolida ko'rib chiqadi va tahvilga tortadi:

*Bir o'rmonda bolta paydo bo'lib daraxtlarni kesa boshlabdi.  
O'rmon ahli unga chora topolmay donishmand Eman huzuriga boribdilar.*

*—Bolta deganlarining nimadan ishlangan? — deb so'rabdi Eman voqeadan ogoh bo'lgach.*

*—Bolta deganimiz temirdan ishlangan, — deb javob qilishibdi.*

*—Dastasi-chi, dastasi ham temirmi? — deb so'rabdi Eman.*

*—Yo 'q, dastasi temir emas, yog'ochdan.*

*—Eh, attang, dastasi o'zimizdan ekan, endi boltani to'xtatishning hech qanday iloji yo 'q, — degan ekan donishmand Eman.*

Ushbu matn uchun talabalar tomonidan yozilgan tahllillar:

### Daminova Nazokat:

*Bu matn mutolaasidan shuni xulosa qilish mumkinki, undagi g'oya majoziy ma'no kasb etgan, o'z ichiga hayotiy hodisani qamrab olgan. Afsuski, hayotda shunday voqealar uchrab turadi. Xalqimizda "O'zingdan chiqqan baloga, qayga borasan da'voga?" yoki "O'zingniki o'zagingni kesadi" kabi ibratli naqllar mayjud. Achinarli holat shunda ko'rindiki, insonlar orasida xuddi shunaqa — boltadek insonlar uchraydi. Bu toifa kishilar xudbin, ayyor, insonlar ishonchini qozonib, ularning zaif tomonlarini bilib olgach, ularga qarshi qurol sifatida qo'llaydigan insonlardir.*

### Ibragimov Jo'rabe:

*Matnni o'qib, afsus bilan aytish mumkinki, boltaning ishi chopish bo'lgandan keyin chopadi-da! Ehtimol, inson boltani boshqarmaganida chopmasligi ham mumkin edi. Darvoqe, Eman donishmandga kelsak, uning savoli qiziq bo'ldi, boltaning dastasi*

*temirdan ham bo'lishi mumkin-ku. Bu matn, albatta majoziy ma'no kasb etadi. Darhaqiqat, "O'zingdan chiqqan baloga, qayga borasan da'voga?".*

### **O'rozov Jumanazar:**

*Bu matn majoziy usulda yozilgan bo'lib, tashqi dushmanidan qo'rqla, o'z ichingdagi dushmanidan qo'rqla degan ma'no kelib chiqadi. Darvoqe, shu o'rinda, Birinchi Prezidentimizning "Beparvo, loqayd insonlardan qo'rqla, chunki ular sabab katta ko'ngilsizliklar kelib chiqadi", – degan gaplarini keltirish o'rinnlidir. Haqiqatan, hozirgi kundagi har xil diniy ekstremistik guruhlarning domiga tushib qolayotgan yoshlarning deyarli hammasi beparvo, loqayd hamda bekorchi yoshlardir.*

### **Arslonova Charos:**

*Yuqorida keltirilgan matnda inson hayotidagi voqeal-hodisalar majoziy ma'no kasb etgan holda, o'simliklarga ko'chirilgan. Matndan chiqariladigan xulosa shuki, o'z ichingdagi, o'zingdan chiqqan ichki dushman har qanday tashqi dushmanidan xayflidir. Ichkidushmanseningog'riqli, zaifomonlaringnibilib, sengaqrashiqo'llasa, yuzchandonharakatqilmagin, unga bas kelolmaysan. U shuqurolorqaliseniparcha-parchaqilishumkin. Zero, "O'zingdanchiqqanbaloga, qaygaborasanda 'voga?".*

### **Xudaynazarova Shoira:**

*Hayotimizda shunday insonlar borki, ular sizga yetti yet begona bo'lsa-da, eng yaqin insoningizday bo'lib qoladi. Afsuski, eng yaqin do'stlaringiz bo'la turib, sizni chohga itarishadi, ba'zida. Zotan, inson bolasi borki, o'z nafsi yo'lida hech narsadan qaytmaydi. Bu yo'lda ular o'zining ota-onasini, yor-u do'stlarini ham unutib qo'yadi ba'zida. "O'zingdan chiqqan baloga, qayga borasan da'voga?" deganlari shudir, ehtimol.*

### **Mustanova Feruza:**

*Afsuski, "O'zingdan chiqqan baloga, qayga borasan da'voga?" deb xalqimiz bekorga aytmagani. Darhaqiqat, dushman ichimizdan chiqsa, qanchalar ayanchli. Birinchi Prezidentimiz ham: "Dushman ichimizdan chiqmasa, O'zbekistonning tinchligiga o'zim kafilman", – deb aytgan edilar. Xalq birlashsa, ahil bo'lsa, bu yurtga hech kim daxl qilolmaydi.*

*Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, talabalar majoziy yo'sinda yozilgan bu matnni to'g'ri talqin qilishga harakat qilgan va bevosita hayotga bog'lab tushun tirib bergen. Matnda, deyarli, bir xil xalq*

maqollaridan foydalanish – shu millat vakillariga xos bo‘lgan umumiy fikrlash tarzini, milliy mentalitetni ko‘rsatib beruvchi vositadir. Matndan “Dushman o‘z ichimizdan chiqsa, yomon”, degan xulosa kelib chiqadi. Ammo bu matnni tanqidiy tahlil qilish holatlarini ham ko‘rib o‘tshimiz mumkin. Xususan, ikkinchi talaba bu matnni o‘z ma’nosida tahlil qilgan va asosli ravishda tanqid ham qilgan. Ya’ni hamma narsa o‘z vazifasini bajarishi kerak. Bu tabiat qonuni, boltaning vazifasi chopish bo‘lgandan keyin chopadi-da, deganx ulosani beradi. Bundan ko‘rinadiki, talaba hayotga real qaraydi va voqeа-hodisalarni boricha qabul qiladi. Bu talabada bir voqeа-hodisani ikkinchi bir voqeaga o‘xshatish, qiyoslash hollari kam uchraydi.

Birinchi talaba bu matndagi ma’noni ochib berishda insonga xos bo‘lgan salbiy sifatlarni, ya’ni xudbinlik, ayyorlik, buqalamunlik kabi illatlarni misol qilib keltirish orqali yoritib bergen. Bu, qaysidir ma’noda, talaba hayotda shunday holga tushgan insonlarni ko‘p ko‘rganligi, guvohi bo‘lganligi bilan asoslanishi mumkin. Inson hayotda nimaga ko‘p duch kelsa, masalaning shu tomonini ko‘proq yoritishga harakat qiladi.

Uchinchi talaba esa bunday holatlarning yuz berishiga asosiy sabab beparvolik va loqaydlik, deb hisoblaydi va hozirgi davrda bo‘layotgan terrorizm, diniy ekstremizm kabi salbiy holatlarning yuz berishiga aynan e’tiborsizlik sabab deb o‘ylaydi. Yoshlarimizning o‘z vaqtlarini mazmunli va samarali o‘tkazishi tarafdoi. Bu talabaning dunyoqarashi ancha keng bo‘lib, hayotdagи arzimagan narsalar ham katta fojalarga sabab bo‘lishi mumkin, degan xulosani beradi.

To‘rtinchи talabamiz – insonning zaif tomonlarini, o‘g‘riqli nuqtalarini bilib olish orqali uni yengish mumkin, shuning uchun siringni boy bermaslikka harakat qil, degan fikr tarafdoi. Bunday insonlar ham hayotda ko‘p narsani ko‘rgan, katta hayotiy tajribaga ega bo‘lgan yoki shu holatga tushganligini bilish mumkin. Kimningdir sirini bilishni eng katta yutuq, deb baholaydi va uni yengish qiyinligini ham eslatib o‘tadi.

Beshinchи talabamiz esa bu voqeani ko‘proq inson nafsi bilan bog‘laydi va bu vaqtda odamlar o‘z insoniy qiyofasini yo‘qotib, yaqinlariga rahm-shafqat qilmasliklarini alohida ta’kidlaydi. Bu talabada ham, boshqalar kabi, hayotiy hodisalarga urg‘u berish kuchli ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Oltinchi talabamiz esa bu matn orqali el-u yurtni birdamlikka, tinch-totuv yashashga va insonlarni vatanparvarlikka chaqirgan.

Dushmanning o‘z ichimizdan chiqishi qanchalik ayanchli bo‘lishiga alohida urg‘u bergen.

Ko‘rib turganimizdek, har bir talabada o‘xhash umumiy fikrlar mavjud. Matnni yoritishda har xil hayotiy hodisalarga muroaat qilganini ko‘ramiz. Bu esa har bir inson boshqa bir olam ekanligini va hayotida qaysi bir voqeа-hodisaga ko‘p duch kelsa, shuni yoritishini birinchi o‘ringa qo‘yishini ko‘rishimiz mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1.Худойберганова Д. Матннинг прецедент шакли // Ўзбек тили ва адабиёти. –Т. 2016. №3. Б. 31-35.

2.Lutfullayeva D, Xudoyberganova D. Antroposentrik tilshunoslik yo‘nalishlari moduli bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua. – Toshkent, 2016.

**R.Zaripov,**  
*ToshDO‘TAU magistranti*

### **MUSTAQILLIK DAVRIDA TIL SIYOSATI**

Har qaysi millat yoki elat o‘z mustaqilligiga erishgach, birinchi navbatda, milliy qadriyatlarini, moddiy va madaniy meroslarini tiklashga, buyuk ota –bobolari, ajdodlarining ulug‘ nomlarini boqiyashtirishga, ular qoldirgan bebahо boyliklarni asrab-avaylashga, ma’naviyatini yuksaltirishga harakat qiladi. Eng asosiysi, ona tilini har jihatdan himoya qilish va yuksaltirishga e’tibor qaratadi. Chunki yuqorida ko‘rsatilgan ishlarni amalga oshirishda ona tilining o‘rni beqiyosdir.

O‘zbek xalqi ham o‘z mustaqilligiga erishgach, barcha sohalarni rivojlantirishga e’tibor qaratdi. Birinchi navbatda ona tilini har tomonlama mustahkamlash zarur edi va bu amalga oshirildi. O‘zbekistonning mustaqillikka erishishi ko‘plab qiyinchiliklar bilan amalga oshirilgan bo‘lsa-da, respublikamizning Birinchi Prezidenti Islom Karimov shu davr ichida, ya’ni XX asrning 90- yillarda ona tilimizning mustaqilligiga erishishi uchun qator harakatlarni amalga oshirdi. Buning natijasida O‘zbekiston o‘z mustaqilligiga erishdi va o‘z ona tiliga ega bo‘ldi. Shu asnoda dunyo xaritasida O‘zbekiston davlati paydo bo‘ldi va juda qadim tarixga ega bo‘lgan o‘zbek tilining qonuniy himoyalangan ko‘rinishi ham vujudga keldi..

O'zbek tilining rivojida, bugungi kundagi taraqqiyotida 1989- yil yurtimizda "Davlat tili to'g'risida"gi Qonun qabul qilinib, o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgani muhim ahamiyat kasb etdi va ushbu huquqiy mezon Konstitutsiyamizda muhrlab qo'yilganligi olamshumulishlardan biri bo'ldi.

Respublikamiz o'z mustaqilligiga erishgach, barcha sohalarda sezilarli o'zgarishlar ko'zga tashlana boshladı. Milliy, madaniy, ma'naviy boyliklarimiz tiklanib, ajodolarimizning ulug' nomlari munosib qadr topdi. Shu bilan birga, ona tilimizga e'tibor yanada kuchaydi. Bu borada 1990 -yili Vazirlar Mahkamasining "Davlat tili to'g'risida"gi qonunni amalga oshirish davlat dasturi to'g'risida"gi Qarori tilimizning taraqqiyoti va keng yoyilishida muhim rol o'ynadi. Bu qaror O'zbekistonda o'zbek tili har jabbada amal qilishidan, yurtimizda rasmiy bиринчи yagona til ekanligidan dalolat berar edi. Keyinchalik ham ona tilimiz yuqori tezlikda taraqqiy etishida bu qarorning o'rni beqiyos bo'ldi.

1991-yil respublikamiz rasmiy ravishda o'z mustaqilligiga erishgach, ona tilimizga bo'lган e'tibor sezilarli darajada oshdi. Mustaqillikning ilk yillarda o'zbek tili bilan birga, rus tili ham asosiy til sifatida qo'llangan bo'lsa-da, keyingi yillarda o'zbek tili to'liq o'z o'rnini topdi.Y urtimizda ta'lim-tarbiya muassasalari va ommaviy axborot vositalari, rasmiy idoralar, davlat tashkilotlari, rasmiy hujjatlar, qaror va farmonlar o'zbek tilida olib borilmoqda.

Ona tilimizga davlat tili maqomi berilgach, yozuvga ham katta e'tibor qaratila boshlandi. Mustaqilligimizning ilk yillardayoq yozuvga, alifboga jiddiy qaraldi va 1993-yilda "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Buning natijasida O'zbekistonda lotin yozushi amal qila boshladı. Barchamizga ma'lumki, shu davrga qadar kirill alifbosi amal qilar edi.Yuqoridako'rsatilgan qonun va qarolarning qabul qilinishi oqibatida O'zbekistonda o'zbek tili va lotin yozushi amal qilishi rasman belgilab qo'yildi. Bu esa O'zbekistonning taraqqiyoti uchun xizmat qilishi ko'zda tutilgan edi va bu tanlangan yo'lining naqadar to'g'ri ekanligini hayotning o'zi tasdiqlab turibdi.

Aytish mumkinki, o'zbek tili bugungi kunga kelib jahonda o'z o'rniga ega bo'lib bormoqda. Istiqlolimizning ilk yillarda qabul qilingan qonun va qarolalar amaliyatga tadbiq etilgach, ayrim jihatlarga yanada jiddiyroq yondashish kerak ekanligi ko'zga tashlandi va qo'shimchalar kiritilishi lozim bo'lib qoldi. Buning natijasida 1995-yil "Davlat tili haqida"gi Qonunning yangi tahriri, 1996- yilushbu

qonunni amalga oshirishga qaratilgan davlat dasturiga tegishli o'zgartirishlar kiritish haqida Vazirlar Mahkamasining Qarori qabul qilindi. Bu esa ona tilimiz rivojini yanada tezlashtirdi va salohiyatini oshirish uchun xizmat qildi. Ushbu sohada yaratilgan me'yoriy-huquqiy baza o'zbek tili bilan birga mamlakatimizda yashayotgan barcha millat va elatlarning o'z ona tilini rivojlantirish va uni erkin qo'llashdan iborat konstitutsiyaviy huquqlaridan foydalanishni kafolatlab kelayotgani alohida e'tiborga sazovordir.

O'zbek tili rivojida yuqorida keltirilgan rasmiy hujjatlar, qonun va qarolarning o'rni beqiyosdir, ammo, kezi kelganida, bir muhim hujjatga e'tiboringizni qaratmoqchimiz. Bu farmon O'zbekistonda o'zbek tiliga bo'lgan e'tiborning eng yuksak ko'rinishlaridan biridir. Birinchi Prezidentimiz tashabbusi bilan 2016-yil 13-mayda qabul qilingan "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida"gi Farmondir. Bu farmon respublikamizda tilga bo'lgan e'tiborning yangi davrini boshlab berdi, desak, mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Endilikda bu universitetda yetishtiriladigan mutaxassislar, avvalambor, yurtimiz taraqqiyoti uchun o'z hissalarini qo'shish bilan birga, o'zbek tilini yanada yuksak darajaga ko'tarish uchun harakat qiladi.

Ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning "*Har bir millatning dunyoda borligini ko'rsatadurgan oyinai hayoti til va adabiyotidur. Milliy tilni yo'qotmak – millatning ruhini yo'qotmakdur*"<sup>{1}</sup> degan hikmatli so'zlar ham yuqoridagi fikrni yaqqol tasdiqlaydi. Biz yosh avlodlar ham mana shu kabi hikmatli so'zlardan va bu yo'ldagi qiyinchiliklardan muhim xulosalar chiqarib, ona tilimizni yanada yuksaltirishga va dunyo hamjamiyatidagi o'rnini mustahkamlashga harakat qilamiz.

Respublikamizning Birinchi Prezidenti Islom Karimovning til haqidagi quyidagi so'zları ham tilga berilgan eng go'zal ta'riflardan biridir. "*Til millatning ruhidir*"<sup>{2}</sup> deb aytganları beziz emas, haqiqatan ham, insonning borlig'i, ruhiyatidagi o'zgarishlar tilida aks etadi. Bu so'zlarni iqtibos sifatida keltirishimizga sabab shuki, birinchidan, bu so'zlarning zamirida juda katta ma'nolar bisyor, shuningdek, hozirgi kunda tilimizga bo'lgan e'tibor kundan kunga oshib bormoqda. Bu esatilimizning taraqqiyoti yuqori sur'atlarda jadallik bilan davom etayotganligidan dalolat beradi. Biz, yoshlar esa ajodolarimiz uchun orzu bo'lgan tilimiz mustaqilligiga erishganligimizni chuqur his etishimiz lozim. Shu bilan birga, uning kelajakdagи rivoji uchun o'z hissamizni qo'shishimiz darkor.

## “OT KISHNAGAN OQSHOM” QISSASI KLASTER TAHLILIDA (OBRAZLAR MISOLIDA)

Yuksak ma’naviy-axloqiy dunyoqarashiga ega bo‘lgan avlodni voyaga yetkazish, ularning ilmiy salohiyatini zamon talablari asosida shakkantirish ta’lim sohasining asosiy masalalaridandir. Zamonaviy ta’limni tashkil etishga qo‘yiladigan talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarflamay, qisqa vaqt ichida yuqori natijalarga erishishdan iborat. Mana shunday maqsad yo‘lida, hattoki, vaqtli matbuotda ham interfaol usullardan foydalanib, tajriba-sinov dars ishlanmalari havola qilinmoqda.

Ma’lumki, Tog‘ay Murod hayoti va ijodi umumta’lim mакtablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda oily o‘quv yurtlarida atroficha o‘rganilmoqda. Bugun boshqa sohalar kabi, adabiyot fanlarida ham o‘qitishning interfaol usullaridan foydalanilyapti. Biz buni “Ot kishnagan oqshom” qissasidagi obrazlar misolida ko‘rishga va asardagi badiiy obrazlarga doir ma’lumotlarni “Klaster” usulida bayon qilishga harakat qilamiz.

*Obraz* erminining tub mohiyatiga nazar soladigan bo‘lsak, “Ruscha-o‘zbekcha” lug‘atda quyidagicha izohlangan: 1) obraz, in‘ikos (moddiy olamdagи narsa va hodisalarning inson ongida aks etishi natijasi va ideal shakli); 2) ko‘rinish, qiyofa, siymo, shakl, aft, bashara; 3) tasavvurdagi ko‘rinish, timsol;<sup>32</sup> Obrazga turli adabiyotlarda turlicha ta’rif beriladi. “Badiiy obraz – adabiyot va san’atning fikrlash shakli, olam va odamni badiiy idrok etish vositasi, badiiyatning umumiy kategoriyasi”<sup>33</sup>dir. Adabiyotshunoslikda badiiy obraz turlicha tasnif qilinadi. Bunda ijodkor estetik ideali birinchi o‘rinda turadi. “Ijodkorning hayotiy kuzatishlari natijasida shakklangan, uning badiiy to‘qimasida aks etgan, ma’lum g‘oyani tashuvchi, inson hayotining aniq va ayni paytdagi umumlashgan tasviri *obraz* deyiladi”<sup>34</sup>. Obraz asarda tutgan o‘rni va vazifasiga qarab adabiyotshunoslikda turlicha: personaj,


<sup>32</sup> “Русча-ўзбекча” лугат 2-жилд-. Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 2013.-Б.785

<sup>33</sup> Куронов.Д., Мамажонов.З., Шералиева.М Адабиётшунослик лугати.– Тошкент: Академнашр.2013.Б.-43

<sup>34</sup> Hotamov. N, Sarimsoqov.B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lugati. Ikkinchи nashr.T.: O‘qituvchi. 1983. 219-b

bosh obraz, ikkinchi darajali obraz, xarakter, tip kabi terminlar bilan ifodalanadi. Obraz - borliqdagi jamiki narsalarning inson ongidagi tasviri. U xoh salbiy, xoh ijobiy holatda ko'rinnmasin tafakkurning borliqdagi ko'rinishi.

Bunda personajlarni jamodot, hayvonot va odamzot nuqtayi nazaridan tasnif qilish mumkin.



Biz Tog‘ay Murod ijodiga nazar tashlar ekanmiz, uning asarlari badiiyat jihatdan ancha zalvorli. Har bir yirik muallif ijodida shunday asarlari bo‘ladiki, ularda o’sha san’atkor iste’dodining yorqin qirralari namoyon bo‘ladi. Bu qissada to‘qsandan ortiq obraz ishtirok etadi. “Tog‘ay Murod asarlarida hayot aks etadi. Hayotda hamisha ham egzulik tantana qilavermaydi. Yaxshi odam ko‘pincha yengilib toblanadi”<sup>35</sup>. Bu qissa o‘zining g‘oyaviy-badiiy muammolari va qavariq obrazlari bilan adibning boshqa asarlaridan ajralib turadi.

Bu asarning asosiy qahramonlari ot va chavandozlar. Tog'ay Murod bu asari bilan bir kashfiyot qildi. Xalq eposlarida, odatda, alplar

<sup>35</sup> Togay Murodning o'z so'zi. To'plam. O'zigaxosshaxsiyatvabetakroriste'dod Yangiyer.

ot minib qahramonliklar ko'rsatadi. Uning qahramoni esa oddiy odam. Ziyodulla Qurbonov( chavandoz, kal). U ot bilan ko'pkariga ishqiboz oddiy bir qishloq yigit. Ziyodulla tabiatan sodda o'ta oriyatchan, insof-u adolat borasida nihoyatda sobitqadam. Asarda Ziyodulla kal tilidan aytilgan: “*Birodarlar, sizga bir nima aytayinmi? Men araz urishni yaxshi ko'raman! O'layin agar-a!*

*Oy tugadi, o'ttizida to'ladi. Shu oyda biror bir nimadan, aqalli bir martagina bo'lsada, arazlamasam bo'lmaydi. Shuoyda kun ko'rganday bo'lmayman*”, – shaklidagi iqror ham bu obraz ning ko'ngli qanchalik nozikligini ko'rsatadi va kishida kulgi uyg'otadi o'qirmanda g'amzadalik paydo bo'ladi. Chunki obro' topgisi, hurmat ko'rgisi kelgan, shunga loyiq bo'lgan, ammo atrofidagilardan hurmat-u e'tibor ko'rmagan “kichkina” odam holati kishi ruhiyatiga titroq soladi.

Tog‘ay Murod asarlaridagi ko'pchilik obrazlar – qadr izlagan kishilar. Ular hech bo'lmasa, qadrliga o'xshab ko'rinishni istashadi. Bu hol bakovuldan arazlab ko'pkarini tashlab ketayotgan, birorta sherigim qayting dermikin, deb umid qilgan Ziyodulla chavondozning ishto'nini ho'llab qo'ygan t'o'rt yashar Karimboy “maslahati” bilan qaytishida namoyon bo'ladi. Bunday yo'l bilan obro' qozonishga urinish beozor kulgi hosil qiladi. Tog‘ay Murod qahramonlari yaxshiliklari azalii bo'lgan odamlardir. Tog‘ay Murod qahramonlarini kitobdagiday gapirtirmaydi, balki kitoblariga tirik odamlarning jonli tili va haqiqiy so'zlash yo'sinini olib kiradi.

Tog‘ay Murod qahramonlari oddiy kishilar. Ular o'z huquqlarini bilmaydigan, bilsa-da aytishdan qo'rqa digan, o'sha jamiyat qurbaniga aylanib, o'z huquqini unutgan kishilar. Asarda Ziyodullakal, kalkatta, Rixsiyev, sinf rahbari, rais, bakovul: Fayzulla, Qo'Idosh, Hamdam, Safar, Samad chavondozlar, Uzangi yo'Idoshlar, beqasam choponlik odam, Shukurov, Sattorov, kapitan katta, Jo'rabbob, Momosuluv, Xumorxola, Tarlonva boshqa otlar hamda it obrazlarining ham o'ziga xos fe'l-atvorlariyu, ko'rinishlarini turli rakurslarda namoyon qiladi.

Bu yo'sindagi mulohazalarni litsey-kollej yoki oliy ta'lim talabalariga qay yo'sinda tushuntirish kerak? Avvalo, asardagi obrazlarning xarakter-xususiyatlari, ichkidunyosi, buyurokratiyaga qanchalik moyilligi yoki o'z shaxsiy fikriga qanchalik egaligi nuqtai nazaridan e'tiborni qaratish lozim. Obrazlarni tasnif qilib, ijobiylar yoki salbiy, adolat borasida qaysi bizga yaqin deb, bugungi innovatsion

texnologiyalar asosida tasnif qilinib tushuntirishga harakat qilinsa, ayni muddao bo'lardi.

Umuman badiiy asarni tushuntirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, grafik organayzerlar orqali ifodalashga harakat qilinsa, ko'zlangan maqsadga tez va oson erishishga muvaffaq bo'lamiz! Ilm-fan va innovatsiyaning hayotimizdagi ahamiyati oshsa, turmushimiz obod va farovon, mustaqilligimiz yanada mustahkam bo'ladi.

## MUNDARIJA

Сўз боши .....	3
<i>M.Ilamciyeva</i> , Реклама матнининг психолингвистик хусусиятлари ...	5
<i>O.Saidaxmedova</i> . The expressing of national-cultural lacunas in Alisher Navoi's works .....	10
<i>N.Sarimsakova</i> . “Dunyoning ishlari” qissasidagi leksik sinonimlarning semantik-uslubiy xususiyatlari.....	13
<i>Abdumannanova M.</i> O‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati.....	15
<i>Sharopova S.</i> Til o‘qitish dasturlarining amaliy ahamiyati.....	18
<i>Nurullayeva O.</i> Ta’limga kreativ yondashishning ahamiyati.....	24
<i>Qurbanova N.</i> “Hayrat ul – abror” asari tilini o‘rganishda FSMU metodidan foydalanish .....	27
<i>Abdusalomova Sh.</i> Savodxonlik – inson ziynati .....	31
<i>Мамаражсабова И.</i> Руҳият билдирувчи фраземалар семантикаси ..	35
<i>Oqmamatova M.</i> Onomastikaning milliy madaniy so‘zlardagi o‘rnni....	39
<i>Murodova D.</i> Sintaktik birliklarda neytrallashuv.....	41
<i>Tuxtayeva S.</i> Neyrolingvistika – psixolingvistikaning yo‘nalishi sifatida.....	44
<i>Igamberdiyeva S.</i> “Qutadg‘u bilig”dagi arabcha so‘zlar poetikasi .....	47
<i>Hayitova L.</i> Ahmad A’zam qissalari tilining til xususiyatlari.....	50
<i>Xudaynazarova Sh.</i> Matn idroki va talqini yuzasidan mulohazalar ..	53
<i>Zaripo R.</i> Mustaqillik davrida til siyosati .....	56
<i>Suvanov Z.</i> “Ot kishnagan oqshom” qissasi klaster tahlilida (obrazlar misolida) .....	59

# **METODIST**

## **I**

Muharrir:

**Iroda Muhiddinova**

Texnik muharrir:

**Fayzullo Azizov**

Dizayner:

**Vasiliy Burtsev**

Terishga 2017-yil 15-fevralda berildi.

Bosishga 2017-yil 13-martda ruxsat etildi.

Bichimi: 84x108 1/32. «PT Serif» garniturasida  
ofset bosma usulida ofset qog'ozida bosildi.

2 shart. b.t. 3,26 hisob nashr. tab.

Adadi 25 nusxa. 49-son buyurtma.

“Muharrir nashriyoti” matbaa bo‘limida chop etildi.  
100011, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, 20<sup>A</sup>-mavzei.  
So‘galli ota ko‘chasi, 5-uy. E-mail: muharrir@list.ru.